BIR BO‘LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ!

www.mv-vatanparvar.uz

VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ … KISTONNING MUST… QONIDIR!

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunida… oshlagan ● … 15-noyabr, №46 (3108)

5 BIR TAN-U BIR JON BO‘LIB

10 AJDODLAR JASORATI – HAYOT SABOG‘I

14 QADRIYATLAR MOHIYATIGA YO‘L



Yurt bayrog‘in har joygamas,
Ko‘nglingga ek. Ko‘ksingni o‘y.
Ishlov bergin, yumshatib tur,
Ildiz otsin, ko‘rsatsin bo‘y.

Halima XUDOYBERDIYEVA

IJTIMOIY-SIYOSIY, MA’NAVIY-MA’RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

BIZ HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz
t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi
facebook.com/mudofaavazirligi
instagram.com/mudofaavazirligi
youtube.com/c/uzarmiya

18-noyabr – Davlat bayrog‘i qabul qilingan kun

Dunyoni so‘zlar va qonunlar emas, balki ramz, belgi va timsollargina boshqaradi.

Konfutsiy

TARIXLARNI HILPIRATGAN BAYROQ



Zamonaviy bayroqlarning dastlabkisi – harbiy belgilar, ba’zan rangli lentalar bilan bezatilgan, tepalarida turli xil figurali ustunlar shaklida qilingan. Bunday belgi tasvirlari ko‘hna Misr va Ossuriya bag‘irlaridan topilgan. Ular qo‘mondonning ham, askarlarning ham qo‘lida bo‘lib, har qanday vaqtda belgi bilan o‘zlarining qayerda ekanliklarini bildirib turishgan.

Qadim Rimda rangli matolar ustunlar tepasiga o‘rnatilgan. Bunday belgilar “vexillum” *(lotincha “vexillum” – banner)* deb nomlangan, ular zamonaviy bayroqlarning dastlabki avlodi bo‘lgan. Birinchi mato bayroqlar Xitoy, Hindiston, Qadimgi Rimda paydo bo‘lgan bo‘lib, tarixchilar ularning davrini miloddan avvalgi 1100-yillar deya taxmin qilishadi.

Firdavsiyning “Shohnoma” asarida temirchi Kovaning bayrog‘i “shoh” bayroq atalib, zardan bezalgani, gavhar-u olmosdan munchoq qadalgani, iqbol tug‘ining bir tomoni sariq, ko‘k, bir yog‘i qizil rangda ekani qayd etilgan... Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far an-Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida Somoniylar davlatidagi hokimiyat ramzi sifatida bayroq tilga olingan.

Keyinchalik **qadimda qo‘llanilgan tug‘lar davlat bayroqlarida o‘z ifodasini topganini Amir Temur davlati** tamg‘alaridagi uch halqa, doirada ko‘ramiz. Chunonchi, asarda “Amr qildimki, qaysi bir amir biror mamlakatni fath etsa, yo g‘anim lashkarini yengsa, unga uch narsa bilan imtiyoz bersinlar: faxrli xitob, tug‘ va nog‘ora topshirib, uni “bahodir” deb atasinlar; uni davlat va saltanat sherigi *(deb)* bilib, kengash majlisiga kirgizsinlar; unga chegara viloyati topshirilsin va o‘sha yerlik amirlar unga bo‘ysunsinlar. Agar amirlardan qaysi birovi to‘rani *(xon o‘g‘lini)* yengsa yoki biror amirzodaga shikast yetkazsa, yo biror o‘lka xonini mag‘lub etsa, uni yuqoridagi tartibda mukofotlasinlar. Chunonchi, Dashti Qipchoqqa O‘rusxonga qarshi urush uchun yuborgan amirim Iygu Temur uni yengib qaytgach, amirni mukofotlab, unga tuman *(lashkar)*, tug‘, bayroq va nog‘ora berdim. Uni davlatimga sherik bilib, o‘zimga maslahatchi va vazir qildim. Kengashlarimga kiritdim va chegaradagi viloyatlardan birini unga taqdim etib, u yerlik amirlarni unga bo‘ysundirdim” deb yozilgan. Tarixiy manbalarda berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, buyuk Amir Temur davlat ramzlariga juda yuksak siyosiy ahamiyat bergan. Sarkarda jang maydonida bir lashkar omon qolsa ham, u mamlakat bayrog‘ini baland tutsin, deb farmon bergan. Bayroqning egilishi mag‘lubiyat belgisi deb qabul qilingan.

Amir Temur davlatining bayrog‘i singari gerbi ham bo‘lgan. Jumladan, sohibqiron yaratgan markazlashgan davlat o‘zining gerbi – uch halqa shaklidagi tamg‘asi bilan tanilgan. Sarkardaning yurishlarida lashkar oldida uning tug‘i – bayrog‘i olib yurilgan.

Amir Temur davlati bayrog‘ining rangi moviy rangda bo‘lgan.

Bayroq yog‘och yoki metall dastaga, sim yoki qalinroq qattiq tirkamaga mustahkamlangan, bir yoki bir necha rangli, davlat, qo‘shin, chegara, hududni ajratuvchi, davlatni ifodalovchi belgilar, bezaklar tasviri tushirilgan. Shuning uchun ayrim tarixiy manbalarda u **alam** (*arabcha alomat, belgi, nishona)* yalov, tug‘ *(bayroq)*; tug‘, yalov kabi nomlar bilan ham tilga olingan. Alixonto‘ra Sog‘uniyning “Tarixi Muhammadiy” asarida shunday jumlalar keltiriladi:

“Agar ruxsat qilsangiz, oldingizga bayroq ko‘tarib kirur edim, – dedi. Rasulullоh bu ishni ma’qul ko‘rib... Darhol Burayda boshidagi dastoridin yirtib, **bayroq** yasab, ko‘targan holda Madinaga kirdilar”.

Bizning tarixiy merosimiz bugungi kunda xorijiy davlatlar muzeyida saqlanar ekan, tariximizni ifoda etgan VI–VIII asrlarga oid Xorazm kumush idishidagi qasrni qamal qilayotgan qo‘shin tasvirida turli bayroqlar va tug‘lar tushirilgan idish Ermitajdan joy olgan. Quvonarlisi, ularda bayroqlar tasviri saqlangan. Odatda, bayroq harbiylarga kuch va g‘urur berishi uchun jang chog‘ida baland ko‘tarilgan va g‘alaba qozonilishi bilan chodirga qadab qo‘yilgan. Yalov esa qo‘shin, hudud belgisi sifatida kalta tayoqqa mustahkamlanib, o‘tovlar va binolar tepasiga osib qo‘yilgan. Bayroq yordamida do‘st dushmandan ajratilgan. U muqaddas hisoblanib, yo‘qotish, o‘g‘irlatish qo‘shinga ruhiy ta’sir etgan hamda bu dushmanga qo‘l kelgani bois ham Amir Temur bayroqni faqat bahodirlarga ishongani “Temur tuzuklari”da qayd etilgan.

Amir Temur 1370-yili Balx hokimi amir Husaynga qarshi qo‘shin tortib borayotganda Termiz yaqinidagi Biyo qishlog‘ida makkalik shariflardan Sayyid Baraka unga oliy hokimiyat, saltanat ramzi katta nog‘ora – tabl va yalov – bayroq tortiq qiladi. Baroqxon 1423–1427-yillarda Ulug‘ Muhammad ustidan g‘alaba qilib, Oq O‘rdada hokimiyat tepasiga kelgach, Ulug‘bek unga qimmatbaho sovg‘alar, shuningdek nog‘ora va bayroq yuborganligi ma’lum. Harbiy harakatlar chog‘ida nog‘ora va bayroq oliy bosh qo‘mondonning baland yerga o‘rnatilgan xirgohi oldidan joy olgan. Saroylarda esa ular darvoza ustidagi xonaga joylashtirilgan.

“Tug‘” atamasi ilk marta bir uyg‘ur xoqoni sha’niga bitilgan Shineusu *(VII asr o‘rtasi)* yodnomasida ko‘zga tashlanadi. 1202-yili Chingizxon O‘nan *(Onon)* daryosi bo‘yida 8 tug‘ni tikkan holda saltanat tashkil topganligini e’lon qiladi. Islom dini qabul qilingandan keyin ham turkiy davlatlarda tug‘ silsilasi qo‘llanishda davom etdi. Chingizxon saltanatida, Saljuqiylar, Mamluklar, Qoraxoniylar, Usmoniylarda bo‘lgani kabi Temuriylarda ham tug‘ mavjud edi. Tuman begi “bahodir” faxriy unvoni qatori tug‘ dovul hamda tumantug‘ va chortug‘lar bilan sharaflangan.

Usmoniylar saltanatida sanjaqbeylar bitta, beylarbeylar 2 ta, vazirlar 3 ta, shayxulislomlar 2 ta, qozi askarlar bitta, yanicharlar boshliqlari bitta, podshohlar esa 6 ta tug‘ga ega bo‘lgan. Harbiy safarlar chog‘ida tug‘larni ko‘tarib yuruvchi shaxslar tug‘chi atamasi bilan ifodalangan.

Shunga ko‘ra, quyidagi lavozimlar vujudga kelgan: tug‘luq – “tug‘ egasi”, to‘qsoba – “o‘z tug‘iga ega bo‘lgan harbiy qism boshlig‘i” lavozimlari joriy etilgan. **Bo‘ri boshli tug‘lar bo‘rini o‘z totemi – ilk ajdodi deb hisoblagan ko‘plab turkiy davlatlar va xalqlar tomonidan qo‘llanilgan. Jumladan, oltindan yasalgan bo‘ri kallasi tamg‘asi turklarning bayrog‘ida o‘z aksini topgan**.

Mahmud Koshg‘ariyning ma’lumot berishicha, Qoraxoniy hukmdorlar “to‘qqiz tug‘liq xon” yoki xoqon unvoni bilan ulug‘langan. An’anaviy qadimgi tug‘lar uzun tayoqqa mahkamlangan ot dumi yoki bir tutam ot yolidan iborat bo‘lgan. Keyinchalik tug‘larga qo‘shimcha ravishda turli hajmdagi mato parchalari, tasmalar ilingan. Bu tug‘lar ham bahodirlar qo‘lida xalqni, qo‘shinni ergashtirsa, ikkinchi tomondan, dushman tarafga g‘ulg‘ula, vahima solgan. Tug‘ga ilingan mato esa havo bilan to‘lganda, osmondan uchib borayotgan ajdarning tasvirini bergan.

Keyinchalik xonliklar davrida ham bayroqlar yanada o‘z tasviriga ega bo‘lib, Qo‘qon, Xiva, Buxoro xonligini ajratib turgan. Xoja Samandar Termiziyning “Dastur ul-muluk” asarida mazkur davrga xos bayroqlar haqida ma’lumotlar keltiriladi. Nizomulmulkning “Siyosatnomasi”da ham davlat tamg‘alarining ahamiyati bayon etilgan. Demak, Yangi O‘zbekiston yoshlari milliy bayrog‘imizning tarixiy, ma’naviy, huquqiy asoslarini ham chuqur anglamoqlari zarur.

Bugun ham bayroq o‘zining qadimiy va ulug‘vor ramzini yo‘qotmagan. Jumladan, bayroqdagi moviy rang – uning ostida barcha millatlar turli xil xavf-xatarlardan xoli, emin-erkin holda ahil-inoq yashab kelayotgan musaffo osmonimiz hamda obihayot ramzi. Bayroqdagi oq rang – davlatimiz fuqarolarining o‘zaro hamjihatlikda, bir-birini hurmat qilib, diniy bag‘rikenglik tamoyillari asosida tinch-totuv yashayotganining timsoli. Yashil rang esa tabiatning yangilanishi hamda ona-yurtimizning bepoyon yer-u, serhosil dalalarining ramzidir. Mana bugun “Yashil makon” loyihasi ham bayroqdagi ranglarning amaliy ifodasi bo‘lsa, qizil hoshiya yuqoridagi manbalarda qayd etilgan davlatimizning himoyasi uchun to‘kilgan qon, istiqlol orzusini ifoda etadi. Yarim oy va 12 yulduz “Ilmi Nujum”ni aks ettiradi.

Davlat bayrog‘i to‘g‘risidagi qonunchilik ijrosini ta’minlash davlat organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlari zimmasiga yuklatilgan. Davlat ramzlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish fuqarolarga BHMning 3 baravaridan 5 baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa 3 baravaridan 10 baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Firuza MUXITDINOVA,
TDYU professori

Huquqiy poydevor

INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI HIMOYA QILISH — ZAMON TALABI

Intellektual mulk obyektlarining jamiyat va davlat taraqqiyotida tutgan o‘rni muhimligini inobatga olib, mazkur sohada amaldagi qonun hujjatlarida intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlar himoyasiga doir normalarni mustahkamlash, shuningdek mazkur huquqlarni muhofaza qilishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini xalqaro amaliyot va xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasidan kelib chiqqan holda yanada takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Milliy va xalqaro tajribadan ma’lumki, iqtisodiyot va jamiyatning taraqqiyot darajasi ko‘p jihatdan intellektual mulkni himoya qilish bo‘yicha yaxshi rivojlangan va izchil yo‘lga qo‘yilgan tizimga bog‘liq. Zero iqtisodiyotdagi samaradorlik ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalar va ixtirolarning joriy etilishi evaziga oshadi. Shu bois bugungi kunda intellektual mulk har bir mamlakat iqtisodiyotining muhim qismiga aylangan. Uning taraqqiy etishi, o‘z navbatida, iqtisodiyotga sarmoyalar kiritilishiga, innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi esa xalq xo‘jaligining modernizatsiyalashuviga hissa qo‘shadi.

Yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga intellektual mulk bilan bog‘liq norma kiritilishi kelgusida bu soha bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirishga, yangi qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqib mamlakatimizda ixtirolar, sanoat namunalari, foydali modellar, tovar belgilari hamda intellektual mulkning boshqa obyektlarini himoya qilish, ular bo‘yicha huquq egalarini himoya qilish, ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalar hamda ixtirolar, ilmiy-texnik, sanoat ishlanmalarini, seleksiya yutuqlarini, badiiy konstruktorlik va boshqa turdagi ijodiy ishlarning keng joriy etilishiga ko‘maklashish, shuningdek intellektual mulk obyektlarini ekspertiza qilish va ularni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, intellektual mulkni himoya qilish masalasida yagona pozitsiyani ishlab chiqish va bu sohada xalqaro miqyosda O‘zbekiston Respublikasi manfaatlarini himoya qilish, aniq maqsadli tayyorgarlik ko‘rish hamda tegishli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar faoliyatida ishtirok etishni ta’minlash kabi asosiy vazifalar amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsion texnologiyalar hamda ixtirolarni, ilmiy konstruktorlik hamda ijodiy ishlarning boshqa turlarini ishlab chiqarishga keng tatbiq etishga har tomonlama ko‘maklashish, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, tadbirkorlik subyektlari uchun intellektual mulk sohasida kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlashni amalga oshirish, intellektual mulkni muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi masalalar ham oldimizdagi muhim vazifalar sirasiga kiradi. Zero bu sohani kuchaytirish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish demakdir. Intellektual mulkni himoya qilish, shubhasiz iqtisodiyotimiz samaradorligini oshirishga ko‘maklashadi, mamlakatimiz intellektual salohiyatini yuksaltirishda, xalqimiz farovonligida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi.

Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g‘amxo‘rlik qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 52-modda



Murodjon JALOLDINOV,
Adliya vazirligi intellektual mulkni ro‘yxatga olish va rivojlantirish boshqarmasi bosh maslahatchisi

Shaxs daxlsizligi

DEMOKRATIK TAMOYILLAR MOHIYATI

Konstitutsiya – bu shunchaki huquqiy hujjat emas, balki davlat va jamiyat hayotining barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim ijtimoiy-siyosiy institut. U davlatning huquqiy tizimini shakllantiradi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladi, davlat organlarining faoliyatini tartibga soladi va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Shu bilan birga u siyosiy tizimning asosiy qoidalarini belgilaydi, bu esa siyosiy barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi.

Ta’kidlash kerakki, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilinib, 1-maydan kuchga kirdi. U 6 bo‘lim, 27 bob va 155 ta moddadan iborat.

Keling, birgina 13-modda orqali davlatning demokratik tamoyillarini aks ettiruvchi muhim prinsiplariga e’tibor qaratamiz:

“O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra, inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi”.



Bu modda, avvalo O‘zbekiston Konstitutsiyasining inson huquqlari va erkinliklariga bo‘lgan yuqori e’tiborini ko‘rsatadi.

Unda inson hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmati oliy qadriyat sifatida belgilangan. Bu esa davlat siyosatining markazida inson manfaatlari turishini anglatadi. Shuningdek, modda demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinishini kafolatlaydi, bu esa fuqarolarning huquq va erkinliklari nafaqat e’lon qilinganligini, balki amalda ham himoya qilinishini kafolatlaydi.

Aytish kerakki, 13-modda Konstitutsiyaning boshqa moddalari uchun ham asos bo‘lib xizmat qiladi. U Konstitutsiyaning keyingi boblarida batafsil yoritilgan, fuqarolarning huquq va erkinliklari, davlat organlarining vakolatlari va majburiyatlari uchun umumiy prinsiplarni belgilaydi.

Konstitutsiyaning ahamiyati uning jamiyat hayotidagi ko‘p qirrali rolida namoyon bo‘ladi. U huquqiy davlatchilikning poydevori, ijtimoiy barqarorlikning kafolati va milliy birlikning ramzi sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga Konstitutsiya jamiyatning rivojlanish yo‘nalishini belgilaydi va xalqaro munosabatlarda mamlakatning pozitsiyasini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, milliy Qomusimiz, avvalo shaxs daxlsizligi, jamiyat oldidagi majburiyatlarimizni anglash imkonini beruvchi asosiy hujjatdir.

Lolaxon KARIMOVA,
Adliya vazirligi mas’ul xodimi



XOH KUN BO‘LSIN, TUN!

Tarixdan ma’lumki, har qanday zamonda jang taqdirini qo‘shin soni emas, uning jangovar shayligi, tezkorligi, mahorati va albatta, ruhiy quvvati hal qilgan. Buyuk sarkardalarning faoliyatida kuzatilgan bunday jihatlar asrlar o‘tishi bilan o‘z qimmatini yo‘qotgani yo‘q. Bugun ham dunyoda qo‘shinning soniga emas sifatiga e’tibor qaratilmoqda. Zamon talabidan kelib chiqqan holda yangi taktik uslublar ishlab chiqilmoqda. Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida ham bu borada amaliy ishlarga kirishilgan.









Markaziy harbiy okrug “Forish” tog‘ poligonida o‘tkazilgan batalyon taktik-o‘quvi misolida Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida jangovar shaylikning qay darajada ekanini kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ldik.

Tong g‘ira-shirasida yangragan “Yig‘in!” buyrug‘i bilan Vatan himoyachilari oyoqqa qalqdi. Sanoqli daqiqalar ichida shaxsiy tarkib o‘ziga tegishli qurollar va jangovar harbiy texnikalar bilan “Forish” tog‘ poligoniga yo‘l oldi. Shaxsiy tarkib harbiy texnikalar kolonnasi bilan harakatlanishda tezkorlik, aniqlik va hamjihatlik me’yorlariga amal qilishdan tashqari, shartli dushmanga qarshi zarbalar berish bo‘yicha topshiriqlar oldi.

Belgilangan hududga yetib kelgan har bir vzvod va bo‘linma tegishli topshiriqlarni olib, qulay pozitsiyalarga joylashdi. Qo‘mondonlik punkti, front orti ta’minoti, aloqachilar, kimyoviy hujumdan himoyalanish, axloqiy-ruhiy ta’minot, havo hujumidan mudofaa, razvedka-qidiruv guruhi, texnik va tibbiy yordam ko‘rsatish xizmati, tankchilar hamda motoo‘qchilar vzvodi jang maydonidagi muhandislik tamoyillari asosida niqoblandi. Vzvod va bo‘linmalarning harakatlanish nuqtalari belgilandi.

Mashg‘ulotlarning asosiy jarayonlari tun qorong‘isida boshlandi. Joylashuv hamda harakatlanish chiziqlari bo‘yicha mutaxassislardan ko‘rsatmalar olgan harbiy xizmatchilar tog‘, dala, shahar va cho‘l sharoitida shartli dushmanni yo‘q qilish bo‘yicha topshiriqlarni bajarishga kirishdi.

Uchuvchisiz uchish apparatida olingan razvedka ma’lumotlariga ko‘ra, shartli dushman joylashgan hududga tanklardan va minomyot batareyalaridan zarbalar berildi. Havo hujumidan mudofaa qurollari yordamida dushmanning uchuvchisiz uchish qurilmalari nishonga olindi. Merganlar va jangovar mashinalar ko‘magidagi tozalash guruhlari esa hujum qilingan hududda o‘zlariga tegishli ishlarni oxiriga yetkazdi. Mashg‘ulotlarda texnik va tibbiy yordam ko‘rsatish xizmatining tezkorligi ham sinovdan o‘tkazildi.

Markaziy harbiy okrug boshqaruv apparati ofitserlari kuzatib borgan taktik-o‘quv mashg‘uloti o‘quv-uslubiy jihatdan bir necha yangicha harakatlarni o‘z ichiga qamrab olgan edi. Tun zulmati bo‘lishiga qaramasdan, harbiy xizmatchilar tungi ko‘rish vositalaridan foydalangan holda hudud bo‘ylab nishonlarni yo‘q qilishda o‘z mahoratlarini namoyish etdi. Vazifalarni to‘laqonli bajarishda nishonga yo‘naltiruvchi mutaxassislar hamda razvedka-qidiruv guruhining aniq va tezkor ma’lumotlari muhim rol o‘ynadi.

Jangchi jang maydonini tanlamaydi, degan ibora mana shunday mashg‘ulotlar davomida haqiqiy ma’noda o‘z isbotini topadi. Harbiy xizmatchilar qayerda bo‘lmasin, suvdami, cho‘ldami, tepalikdami, tog‘-u toshdami xoh kun bo‘lsin, xoh tun har qanday sharoitda jangovar topshiriqlarni bajarish ko‘nikmasiga ega ekanliklarini namoyon qildi.

Sh. EGAMBERDIYEV,
“Vatanparvar”

Men g‘olib!







BIR TAN-U BIR JON BO‘LIB

Nurota tog‘lari yozda quruq iqlimi, qishda izg‘irin sovug‘i bilan respublikamizning boshqa tog‘li hududlaridan ajralib turadi. Ijodiy jamoamiz bilan xizmat safari yuzasidan “Forish” tog‘ poligoniga yetib kelganimizda maydonda ana shunday sovuq havo hukm surmoqda edi. Tog‘ning izg‘irin havosiga qaramasdan, ijodiy jamoamiz bilan xizmat safarining ilk daqiqalaridan boshlab ish jarayonlariga kirishib ketdik.









Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida guruhlarning jangovar shayligi va tayyorgarligini mustahkamlash, ularni yo‘nalish bo‘yicha jangovar vazifalarni bajarishga tayyorlash va imkoniyatlarini oshirish, komandirlarning boshqaruvchanlik salohiyatini mustahkamlash, jangovar ruhiy holatni barqaror ushlash maqsadida “Eng ilg‘or jangovar guruh” ko‘rik-tanlovi o‘tkazilib kelinmoqda. Musobaqaning bu galgi hal qiluvchi bosqichiga “Forish” tog‘ poligoni mezbonlik qildi. Harbiy okruglar harbiy qism va batalyonlarning jangovar guruhlari va Qurolli Kuchlar akademiyasi umumqo‘shin fakultetidan jami 9 ta jamoa qatnashgan mazkur musobaqa ko‘tarinki, qizg‘in jarayonlarga boy tarzda o‘tgani bilan esda qolarli bo‘ldi.

Jami ikki bosqichdan iborat bo‘lgan mazkur musobaqada guruhlar taktik jangovar algoritm va otishning texnik elementlari, o‘quv-jangovar vazifalarni bajarish, shuningdek kompleks mashg‘ulotlar hamda guruh tarkibida jangovar vazifalarni bajarish shartlari bo‘yicha o‘zaro bahslarga kirishdi. Jarayonlarda jamoalar o‘zlarining kuch va imkoniyatlarini, bilim hamda ko‘nikmalarini amaliyotda namoyon qilgan holda nimalarga qodirligini ko‘rsatib, yuqori natijalarni qayd etib bordi.

– Ushbu musobaqa menga ko‘pgina foydali ko‘nikmalarni bergani, mahorat maktabi vazifasini o‘tagani bilan ahamiyatli bo‘ldi, – deydi katta leytenant Oybek Muhammadjonov. – Bahslarga kirishish davomida safdoshlarim bilan bir tan-u bir jon bo‘lib shartli dushmanga qarshi qay tartibda harakat olib borish, vazifalarni bajarish chog‘ida ko‘proq nimalarga e’tibor qaratish bo‘yicha ko‘nikmalarimni yanada mustahkamlab bordim. Bu kabi musobaqalarning davomli tarzda o‘tkazilishi harbiy xizmatchilarimizning jangovar shayligi va tayyorgarligini mustahkamlashga xizmat qilishiga shubha yo‘q.



Albatta, barcha musobaqalar singari ushbu bahslarda ham eng munosiblar g‘oliblar qatorida e’tirof etildi. Yakuniy natijalarga ko‘ra, “Eng ilg‘or jangovar guruh” ko‘rik-tanlovining pushka bilan qurollangan guruhlari o‘rtasidagi kechgan bahslarda 1-o‘rin Markaziy harbiy okrug jamoasiga nasib qildi. Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrugdan tashrif buyurgan jamoalar esa 2- va 3-o‘rinlarni qo‘lga kiritishdi. Shuningdek, musobaqaning katta kalibrli pulemyot bilan qurollangan guruhlari o‘rtasida kechgan bahsda mutlaq g‘oliblik Toshkent harbiy okrugi jamoasiga, 2-o‘rin Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug va 3-o‘rin Sharqiy harbiy okrug jamoalariga nasib qildi.

Tanlovning yopilish marosimida so‘zga chiqqanlar musobaqa harbiy xizmatchilarda yuksak jangovar tayyorgarlik va professionallikni oshirish, yetakchilik xususiyatlarini rivojlantirish, jamoalarda sog‘lom, raqobatbardosh va ma’naviy-axloqiy muhitni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etayotganini qayd etdi.

Sherzod EGAMBERDIYEV,
“Vatanparvar”



Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida “Men g‘olib!” shiori ostida o‘tkazib kelinayotgan bir necha turdagi musobaqa va ko‘rik-tanlovlar harbiy jamoalar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini yaratib, jangovar shaylikni oshirish bilan birga mamlakat mudofaa qudratining yuksalishiga ham xizmat qilmoqda.

MAYDONDA

Chirchiqdagi dala-o‘quv maydonlaridan birida “Eng ilg‘or otliq guruh” ko‘rik-tanlovi bo‘lib o‘tdi. Dastavval harbiy qism chavandozlari, so‘ng harbiy okruglar o‘rtasida va final bellashuvi Mudofaa vazirligi miqyosida o‘tkazilgan mazkur ko‘rik-tanlov uch bosqichda tashkillashtirildi.



BIRINCHI BOSQICH

100 kilometrga yaqin bo‘lgan masofadagi marafonda harbiy chavandozlar daryo va minali maydondan o‘tish, 20 km bo‘lgan dushman hududi bo‘ylab tovushsiz tezkor dozor harakati, tunashni tashkillashtirish va oriyentirlash, yaradorga birinchi yordam ko‘rsatish va uni 2 kilometr masofaga otda olib borish, har biri 30 kilogramm og‘irlikda bo‘lgan o‘q-dori joylangan 32 ta qutini 5 km masofaga tashish kabi topshiriqlarni bajardilar.



IKKINCHI BOSQICH

3 kilometr masofada to‘siqlar yo‘lagidan o‘tish, o‘q otish, 4 kilometr masofada ot mingan holda saf va taktik vazifalarni bajarish, granata uloqtirishdan iborat bo‘ldi.


UCHINCHI BOSQICH

Harbiy chavandozlarning xos bellashuvi bo‘lib, u ot poygasi estafetasi, jamoaviy uloq-ko‘pkari, ot ustida kurash, ot ustida nishonga kamondan, pistoletdan yoki pnevmatik quroldan o‘q otish mashqlarini o‘z ichiga oldi.

“TURKLAR OT USTIDA YURAR, OT UZARINDA UXLAR...”

Ot qadimdan yigitning eng yaqin do‘sti, yo‘ldoshi bo‘lgan. Shuning uchun ham tarix kitoblarida turklar ot ustida yurar, ot uzarinda uxlar va o‘lar edi, degan so‘zlar ko‘p bitilgan. Chavandoz





Shuhrat SA'DULLAYEV

HARBIY CHAVANDOZLAR





bahodir yigitlar va ularning otlari haqida “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Avazxon”, “Semurg‘ va Bunyod”, “Siyovush” va boshqa xalq dostonlarida, ertak va matallarda ko‘plab ma’lumotlar uchraydi. Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining “Qunduz va Yulduz” dostonida bir lavha bor: “Avazxon dushman askarlari bilan jang qilib, ko‘pini qirib tashlaydi. Oxiri o‘zi yarador bo‘lib, hushdan ketadi. Shunda uning oti G‘irot o‘z sohibining belbog‘idan tishlab, toqqa olib chiqib ketadi. Yov uni quvib yetolmaydi. Avazxon hushiga kelib, ko‘zini ochib qarasa, G‘irot tepasida ko‘zyosh to‘kib turganmish. Shunda Avazxon G‘irotni: “Jonim G‘irot, molim G‘irot, seni mingan topgay murod” deb erkalagan ekan.

MAOSH OT BAHOSIDA TAYIN QILINGAN

Sohibqiron Amir Temur yurishlarining muvaffaqiyati ham otlar bilan bog‘liq. Uning davrida chavandozlarning martabasi ulug‘ bo‘lgan. “Oddiy sipohiylarga o‘z vazifasini o‘rinlatib bajarish sharti bilan maoshi mingan otining bahosida, bahodirlarning maoshi esa ikki ot bahosidan to‘rt ot bahosigacha tayin qilindi”, deyiladi tuzuklarda. Manbalarga ko‘ra, temuriy shahzodalar ham chavandozlik, harbiy san’at bo‘yicha maxsus o‘qitilgan. Xususan, Bobur bir vaqtning o‘zida bir necha otlar ustida yugurib, ya’ni otdan otga sakrab, o‘z chavandozlik mahoratini ko‘rsata olgan.

Vatan himoyasida sobit turgan mard o‘g‘lonlarning “Eng ilg‘or otliq guruh” ko‘rik-tanlovidagi ishtiroki, ularning chaqqonligi va ruhiy quvvati, abjirligi, intilishi va shiddati milliy armiyamiz qo‘shinlarida ulug‘ ajdodlar an’analari davom etayotganidan dalolatdir.

“ENG ILG‘OR OTLIQ GURUH”

1-o‘rin

Toshkent harbiy okrugi jamoasi

2-o‘rin

Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug va Sharqiy harbiy okrug jamoalari

3-o‘rin

Markaziy harbiy okrug va Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug jamoalari

G‘olib va sovrindorlar kubok, diplom, qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandi.

Furqat ERGASHEV

DEMOKRATIK JAMIYAT BARPO ETISHDA MUTAFAKKIR AJDODLARIMIZNING QARASHLARI

Demokratiya – asrlar davomida butun insoniyat tarixiy taraqqiyoti mobaynida intilib kelayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy va mafkuraviy munosabatlarni adolatli boshqarish tizimi. Zero hozirgacha insoniyat tarixida orzu qilingan tom ma’nodagi huquqiy demokratik davlat, odil fuqarolik jamiyatining mukammal shakli yaratilgani yo‘q. Chunki demokratik qarashlar, unga bo‘lgan intilishlar turli davrlarda turlicha bo‘lgan. Demokratiya tushunchasining real mazmuni, ayniqsa uni ijtimoiy amaliyotda namoyon bo‘lish shakllari u yoki bu tarixiy davrda mavjud bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzumga mos ravishda o‘zgarib borgan.

O‘zbekistonda barpo etilayotgan demokratik jamiyat asoslarining eng qadimgi ildizlaridan biri “Avesto”dir. U miloddan avvalgi VII–VI asrlarda hozirgi O‘zbekistonning Xorazm viloyati hududida yaratilgan ilk davlatchilik to‘g‘risidagi ijtimoiy-falsafiy, diniy ta’limot hisoblanadi. ”Avesto”ni “Hayot yo‘riqnomasi”, “Qonunlar to‘plami”, “Bilimlar majmuasi” deb bejiz atashmagan. Zero hozirgi adolatparvar demokratik jamiyat asoslarini yaratishga qaratilgan milliy g‘oya bilan hamohang ijtimoiy-falsafiy fikr unda mavjudligi ko‘zga yaqqol tashlanadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, manbalarda yozilishicha, mahalliy xalqni o‘z nazoratida tutib turish uchun, bosqinchilar mustahkam o‘rnashib olish maqsadida “Mahalliy xalq ustidan o‘z hukmini yanada mustahkamlash, ular ustidan nazoratni kuchaytirishning zarurligi natijasi o‘laroq, boshqaruv apparati, boshqaruv markazi muntazam Qurolli Kuchlar, nazorat organlari tashkil etila boshlandi. Davlat ana shu tartibda tarkib topa boshladi”. Ana shunday tarixiy sharoitda mahalliy xalqni birlashtirish obyektiv zaruriyatga aylanib bordi. Faylasuf olim Tohir Karimning e’tirof etishicha, “Cho‘l bilan voha xalqini, kelgindi bilan o‘troq xalqlarning manfaatlariga bunday mos kelmaydigan ziddiyatlarni bartaraf eta oladigan qudratli mafkura zarur edi. Ana shunday mafkura bo‘lib Zardusht ta’limoti vujudga keldi”.

“Avesto”da davlat boshqaruvi tizimiga jamiyat tarixi va uni rivojlanishiga oid ma’lumotlar o‘z ifodasini topganining e’tiborli jihati shundaki, unda avvalo inson haq-huquqi, manfaati, erki, uning ruhiy, ma’naviy komilligi, falsafasi ustuvor yo‘nalish hisoblanadi.

Ma’lumki, demokratik jamiyat asoslari ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, huquqiy normalarga ham bog‘liq bo‘ladi. Har qanday adolatli demokratik jamiyat huquqiy munosabatlardan tashqari mavjud bo‘la olmaydi. Inson o‘zining amaliy faoliyati, ezgu fikrlari va so‘zi bilan yorug‘lik, baxt va haqiqatga eltuvchi oliy tangri Ahuramazdaga yaqinlashadi. Demokratik jamiyat mohiyati va mazmuniga ko‘ra haqiqat, axloqiy burch, yaxshi so‘z, maqsad, poklik, ezgulikka intilish, hayot, yorug‘lik, baxt, suv, yer, olov, xonadon, totuvlik, chorva, dehqonchilik, hunarmandchilik tushunchalarini o‘zida mujassam etadi. **Jamiyatda kishilar o‘rtasida munosabatlar, muayyan ijtimoiy normalar asosida tashkil etilmog‘i lozim**. “O, Spitama, shartnomani buzuvchi kishi butun mamlakatni buzadi, shu bilan birga, Artaga tegishli barcha mulk-u mollarga putur yetkazadi. O, Spitama, ahdingni buzma...”

“Avesto”da qayd etilgan adolatli, huquqiy jamiyat haqidagi ta’limotlar Qadimgi Rim va Yunon huquq falsafasidan qadimiyroq, ayni paytda O‘zbekistonda demokratik jamiyat shakllanishi asosida umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘liqligi, shuningdek har qanday ijtimoiy tizim zamirida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, mafkuraviy tizimlarning uzviy bog‘liqligi yotadi. “Avesto”da ilgari surilgan g‘oyalarni o‘z davrining xaloskor g‘oyalaridan biri deyishimiz mumkin. Chunki unda inson, xalqning baxt-saodatini ta’minlovchi yaxlit davlat tizimini yaratish haqidagi ta’limotda o‘z ifodasini topgan.

Ta’kidlash joizki, **antik zamon Yevropa madaniyatining rivojlanishida Markaziy Osiyo xalqlari dunyoqarashining asosi bo‘lgan zardushtiylik diniy-falsafiy ta’limotining ta’siri muhim ekani manbalarda qayd etiladi**.

Ma’lumki, eramizdan avvalgi V–IV asrlarda Yunonistonning ko‘pgina polis-shaharlarida demokratik tamoyillarga asoslangan tizim qaror topgan edi. Bu davrdagi demokratik tizimning muhim belgisi sifatida insonning, har bir fuqaroning, uning jamiyatda tutgan o‘rnidan qat’i nazar, davlat ishlarida ishtirok eta olish huquqiga ega bo‘lishi mumkin, buning uchun esa siyosiy faol kishilardan nutq madaniyati, notiqlik san’atini doimiy takomillashtirib borishi va fuqarolarni ishontira olish san’atini to‘la egallash talab qilingan.

Platon va Aristotel demokratiya deganda, avvalo davlatni boshqarish shaklini tushungan. Pirovard natijada, demokratik jamiyat bo‘lish uchun esa u yoki bu davlatni bir kishi boshqaradimi, ko‘pchilikmi? – degan savolga javob berish ularning fikricha, muhim ahamiyatga egadir. Masalan, Platon ideal davlat deb bilgan – aristokratik davlat tuzumining halokati yer va turarjoylarning xususiy mulkka aylanishiga, bundan esa noroziliklar kelib chiqib qarama-qarshiliklar paydo bo‘lishi va urushlar boshlanishiga sabab bo‘ladi. Urushlar xususiy shaxslar qo‘lida katta miqdorda boylik to‘planishiga olib keladi. Oqibatda davlat hokimiyatini oligarxiya egallaydi, kambag‘allar boshqaruvda ishtirok etolmay qoladilar.

Oligarxik davlatda mulksiz aholining boylarga qarshi nafrati kuchayib boradi, bu esa davlat to‘ntarishiga olib keladi va oxir-oqibat demokratiya o‘rnatiladi.

Umuman, demokratiyani Platon yoqimli va rang-barang, lekin yetarli darajada boshqarib bo‘lmaydigan tuzum sifatida baholagan. Bunday davlatlarning har qaysisida nimaiki ezgu ish deb hisoblangan bo‘lsa, *(timokratiyada – harbiy zafarlar, oligarxiyada – boyliklar, demokratiyada – erk)*, aynan shu narsa davlatning halokatiga sabab bo‘ladi.

Platon qarashlarini tanqid ostiga olgan Aristotel davlatning paydo bo‘lishi va shakllanishini tabiiy taraqqiyot natijasi deb qaraydi. Davlat boshqaruvining to‘g‘ri – monarxiya, noto‘g‘ri shakli esa oligarxiya va demokratiya, deb hisoblaydi. U qonunga emas xalqqa bog‘liq bo‘lgan demokratiyani tanqid qilib, qonun ustuvorligiga asoslangan demokratiyani qo‘llab-quvvatlaydi.

Abu Nasr Forobiy ularning demokratik jamiyat haqidagi g‘oyalarini yanada rivojlantirdi. Bu haqda nemis olimi German Ley shunday deydi: **“Forobiy yunon traditsiyalarining turli xil elementlaridan foydalangan holda davlat va siyosatni tushunish masalalarida Platon fikrlaridan uzoqlashgan, ya’ni ilgarilab ketgan”**.

O‘z davrining yirik mutafakkirlaridan biri bo‘lgan Forobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” risolasida jamiyatni boshqarish tizimi haqidagi ilmiy-nazariy qonuniyatni yaratdi. Forobiyning demokratik jamiyat haqidagi ta’limoti asosida adolat va axloq, qonunchilik g‘oyasi yotadi. “Madaniy jamiyat va madaniy shahar *(ya’ni mamlakat)* shunday bo‘ladiki, – deb ta’kidlaydi Forobiy – shu mamlakatning aholisidan bo‘lgan har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma barobar bo‘ladi, kishilar o‘rtasida farq bo‘lmaydi, har kim o‘zi istagan va o‘zi tanlagan kasb-hunar bilan shug‘ullanadi. Odamlar chin ma’noda ozod bo‘ladilar. Odamlarning tinchlik va erkinliklariga xalaqit beruvchi sulton bo‘lmaydi. Ular orasida turli yaxshi odatlar, zavq-lazzatlar paydo bo‘ladi”.

Forobiyning fozil shahar haqidagi ta’limotidagi qarashlari, bugungi O‘zbekistonda demokratik jamiyat shakllanishiga oid ijtimoiy-falsafiy yondashuvlarga mos kelishini kuzatish mumkin. Uning fikricha, fozil shahar, ya’ni adolatli davlat faqat demokratik tamoyillar asosida rivojlanishi mumkin.

Bu jarayonda davlat boshqaruvchisiga xos bo‘lishi kerak bo‘lgan o‘n ikki xil sifatlari aniq ko‘rsatib berilgan:

to‘rt muchasi sog‘lom bo‘lishi;

nozik farosatli bo‘lishi, eshitganlarini tez ilg‘ab olib voqelikka mutanosibligini mulohazalay olishi;

kuchli xotiraga ega bo‘lish, ko‘rgan, eshitgan narsalarning tafsilotlarini yodda saqlash;

hodisalarning alomatlarini oldindan ko‘ra oladigan o‘tkir zehnli va teran idrokli bo‘lish;

o‘z fikrini to‘liq va aniq ifodalay bilish;

pok va vijdonli bo‘lish, nojo‘ya ishlardan yiroq bo‘lish;

barcha amallarda me’yorga amal qilish, ilmli va ma’rifatli bo‘lish;

haq va haqiqatga intilganlarni sevish, yolg‘on hamda yolg‘onchilarni qoralash;

g‘ururli bo‘lish va oliy maqsadlar sari intilish;

mol-dunyoga ruju qo‘ymaslik;

adolatparvar bo‘lish, nohaqlikka yo‘l qo‘ymaslik, odamlarga odillik ko‘rsatish;

bajarilishi lozim bo‘lgan ishlarni amalga oshirishda qat’iyatli bo‘lish, jur’atsizlik, ikkilanish, ko‘ngilchanlikka yo‘l qo‘ymaslik.

E’tiborli jihati shundaki, Forobiy davlat rahbari xalq tomonidan saylanishidan tashqari, “Ular odamlar ichidan ko‘tarilgan, sinalgan eng oliyjanob rahbarlikka loyiq kishilar bo‘ladilar. Shuning uchun bunday rahbarlar o‘z saylovchilarini to‘la ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqi dushmanlardan muhofaza qiladilar”, degan fikrlari, ayni bugungi kun demokratik jamiyat barpo etish tamoyillaridan biridir.

Faylasuf olim J. Tulenov Forobiyning davlat rahbariga bergan sifatlarini tahlil qilib, **“Ana shunday oliyjanob insoniy fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan, bozor iqtisodiyoti qonun va qoidalarini, uning san’atini mukammal o‘zlashtirib olgan, elim, xalqim deb yonib yashaydigan rahbarlar istiqlol taqdirini hal qiluvchi kuchdir”**, deydi. Xuddi, shuningdek M. Mirhamidov Forobiy davlat rahbariga talablar qo‘yish bilan birga, adolat tamoyillarini olg‘a surishini ta’kidlab o‘tadi. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, “Buyuk mutafakkir va alloma bobolarimizning ma’rifatli jamiyat to‘g‘risidagi g‘oyalari, orzu-umid va armonlari, o‘ylaymanki, ko‘pchiligimizga yaxshi tanish. Bu haqda gapirmasdan, birgina Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarini eslashning o‘zi kifoya” deb alohida ta’kidlaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, ajdodlarimiz qoldirgan ma’naviy meros bugungi kunda O‘zbekistonda yaratilayotgan demokratik jamiyatning asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Binobarin, bugungi **Yangi O‘zbekistonning barpo etilishida ajdodlarimizdan qolgan bu meros bizga doimo g‘urur va iftixor baxsh etib turuvchi eng katta boyligimiz hisoblanadi**. Davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, “Biz – g‘ururi oriyati, ma’naviyati baland xalqmiz. Bu hech, shubhasiz katta boylik. Ajdodlarimiz asrlar davomida asrab-avaylab kelgan bu boylikni yo‘qotib qo‘ysak, kelgusi avlodlar bizni aslo kechirmaydi. Aksincha, bu fazilatni xalqimizni, mamlakatimizni birlashtiradigan eng kuchli tamoyilga aylantirishimiz kerak. Negaki, milliy g‘ururi baland xalqning qadr-qimmati ham baland, ma’naviyati, irodasi kuchli bo‘ladi. Bunday xalq bilan har qanday buyuk maqsadlarga yetishish mumkin”.

Shavkat TO‘RAYEV,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i, dotsent









KO‘NGILLI O‘TGAN UCHRASHUV

“Keksalar uchun turizm oyligi” munosabati bilan Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, shuningdek “Saxovat” va “Muruvvat” internat uylarida istiqomat qilayotgan keksalar uchun madaniy tadbirlar va ijodiy uchrashuvlar o‘tkazilib, faxriylarning muzeylar, ziyoratgoh va qadamjolarga sayohatlari tashkil etilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutida bo‘lib o‘tgan uch avlod uchrashuvi ham ana shunday tadbirlar sirasidandir.



“Keksalar o‘giti – yoshlarga ibrat” degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan mazkur uchrashuvda Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a’zolari, O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armasi vakillari, Mudofaa vazirligi faxriylar ishlari bo‘yicha markaziy kengash a’zolari, harbiy xizmatchilar, mahalla oqsoqollari va faollari hamda o‘quvchi-yoshlar ishtirok etdi.

Dastlab mehmonlar harbiy institut faoliyati, u yerda kursantlarning ta’lim olishlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar, zamonaviy o‘quv sinflari, ilmiy tadqiqotlar laboratoriyalari, amalga oshirilayotgan yangi innovatsion loyihalar bilan yaqindan tanishdi. Ofitserlar, professor-o‘qituvchilar va kursantlarning raqamli texnologiyani rivojlantirish bo‘yicha taklif va mulohazalarini tingladi. Samimiy ruhda o‘tgan muloqot yoshlarga erkin va ijodiy fikrlashga keng yo‘l ochib berdi. Mehmonlar esa ushbu suhbat orqali ta’lim dargohida tahsil olayotgan ko‘plab bilimli va intellektual salohiyati yuksak yoshlarni kashf qilishdi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shundan so‘ng tadbir harbiy qism ma’naviyat va ma’rifat markazida davom etdi.

Unda so‘zga chiqqan O‘zbekiston qahramoni, senator, O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armasi respublika boshqaruvi raisi, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisining o‘rinbosari Sodiqjon Turdiyev, Toshkent viloyati Faxriylar kengashi raisi, zaxiradagi podpolkovnik Aripjon To‘laganov, Mudofaa vazirligi huzuridagi “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati rahbari, polkovnik B. Zulfiqorov o‘z ma’ruzalarida yurtimizda yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlar, yoshlarning ma’naviy-ruhiy kamoloti, jamiyatimizning buguni va kelajak hayotida ularning tutgan o‘rni masalalari yuzasidan atroflicha fikr yuritdilar.

Shuningdek, mustaqil O‘zbekistonimizda keksa avlod vakillarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning hayot sifati va darajasini, uzoq umr ko‘rish davomiyligini oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda yosh avlodni xalqimizning ko‘p asrlik an’analariga hurmat ruhida tarbiyalashda keksalarning rolini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotganini, xususan Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida ham bu borada keng qamrovli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etilayotganini ta’kidlab o‘tdi.

Tadbir doirasida Toshkent viloyatida joylashgan ixtisoslashtirilgan maktablar va Prezident maktabi o‘quvchi-yoshlariga “Vatan tayanchi” harbiy-vatanparvarlik harakati a’zosi ko‘krak nishonlarini tantanali topshirish marosimi o‘tkazildi.

“Impuls” harbiy ansambli xonandalari tomonidan ijro etilgan kuy-qo‘shiqlar tadbirga o‘zgacha ruh bag‘ishladi.

Mehmonlar va o‘quvchi-yoshlar harbiy qism hududida manzarali ko‘chat ekish tadbirida ham faol ishtirok etdi.

Bu kabi tadbirlarning o‘tkazilishi yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashi hamda keksa avlod vakillariga bo‘lgan e’tiborni oshirishi bilan ham ahamiyatlidir.

Mayor Sherqo‘zi HAKIMOV
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti

Anjuman

AJDODLAR JASORATI – HAYOT SABOG‘I

Tarixning haqqoniy qiyofasini tiklash va uni o‘rganish o‘zlikni anglashda, milliy g‘ururni yuksaltirishda, o‘tmishdan ibrat olib yashashda, bugungi hamda ertangi kun uchun aniq maqsadlar qo‘yishda asosiy turtki bo‘la oladigan omildir. Ayniqsa, ajdodlarimizning tarixda amalga oshirgan ibratli amallarini, matonat va jasoratga boy hayot yo‘lini yosh avlodlarga namuna sifatida ko‘rsatishning ahamiyati beqiyos.









Zotan, Prezidentimizning Urganch shahrida qad rostlagan Jaloliddin Manguberdi haykalining ochilish marosimida: *“Biz bugungi dunyoda va mintaqamizda turli tahdid va xatarlar kuchayib borayotgan notinch bir zamonda yashamoqdamiz. Ko‘plab buzg‘unchi kuchlar o‘zlarining g‘araz niyatlari bilan yosh avlodning ongini egallashga urinmoqdalar. Bunday tahlikali vaziyatda jondan aziz farzandlarimizni yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini hammamiz yaxshi tushunamiz. Shu sababli buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi singari vatanparvar, jasoratli ajdodlarimiz hayoti va faoliyatini chuqur o‘rganish, uni xalqimiz, ayniqsa yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib etish barchamizning burchimizga aylanishi lozim”*, deya bejiz ta’kidlamagan edi.

“Jaloliddin Manguberdining yuksak jasorati – yoshlarga ibrat” mavzusida o‘tkazilgan xalqaro simpozium ham xuddi shu maqsadga xizmat qilishi bilan qimmatli bo‘ldi.

Unda mamlakatimiz hamda xorijiy davlatlardan bir qator tarixshunos olimlar, tadqiqotchilar ishtirok etdi. Simpozium dasturiga ko‘ra ishtirokchilar dastlab Urganch shahrida yangidan qad rostlagan Jaloliddin Manguberdi haykali poyiga gulchambar qo‘yishdi. Shundan so‘ng viloyat Ma’naviyat va ma’rifat markazi binosida ilmiy-amaliy konferensiya bo‘lib o‘tdi.

Simpozium doirasida ishtirokchilar Mudofaa vazirligiga qarashli Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litseyga tashrif buyurib, litsey faoliyati, o‘quv jarayonlari, sport va fan to‘garaklari faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Shu kuni o‘quvchi-yoshlar bilan davra suhbati tashkil qilindi. Tadbir mehmonlari Turkiya davlati Pamukkale universiteti professori, tarix fanlari doktori, Turgut Tok, Turkmaniston Fanlar akademiyasi Maxtumquli nomidagi til va adabiyot milliy qo‘lyozmalar instituti ilmiy kotibi, tarix fanlari nomzodi, dotsent, Kakajan Janbekov, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi bo‘limi boshlig‘i To‘xtasin Arslonov, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori*(Phd)*, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Xorazm viloyati bo‘limi rahbari Bekzod Abdirimov o‘quvchi-yoshlarga o‘zlarining boy tajribasi, Manguberdi tarixini o‘rganish mobaynida bosib o‘tgan samarali faoliyati, ilmiy izlanishlari haqida so‘zlab berdi.

Tadbirning badiiy qismi o‘quvchilar tomonidan tayyorlangan sahna ko‘rinishi va kuy-qo‘shiqlar bilan davom etdi.

Xorazm viloyati musiqali drama teatrida namoyish etilgan “Jaloliddin Manguberdi” spektakli ham simpozium ishtirokchilariga manzur bo‘ldi.

Polkovnik I. SAIDOV,
Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litsey direktori

Mulohaza

“MIYASI QO‘LIDAGI AVLOD”

“Banan bilan pulni maymun yoniga qo‘ysangiz maymunlar bananni tanlaydi. Chunki maymunlar bananni sotib olish mumkinligini bilmaydi-da” bu fikrlar “Alibaba grup” kompaniyasi asoschisi, biznes magnat Jek Maaga tegishli. Har gal shu fikrni o‘qiganimda ko‘p narsani anglab yetaman.

Go‘yoki, atrofimizda aynan “maymunlar” ko‘payotgandek. XXI asrni texnika-texnologiyalar taraqqiyoti asri, deya bong uramiz. Vaholanki, ular kirmagan soha qolmadi. Hayotimiz ham onlayn tarzda o‘tib borayotgandek. Yo‘lda yurar ekanmiz, ko‘zlar yo‘lda emas, elektron gajetlarda. Buning yaxshi va yomon tomonlarini emas, nimaga kerag-u, zarar tomonlarini o‘rganmoqchi bo‘ldim.

Axborot texnologiyalariga oid fan bilan shug‘ullanayotganimizda, ustoz talabalarga ishlatayotgan qo‘l telefonlarining narxlari haqida savol berdi.

Bu juda yaxshi, ya’ni zamonaviy eng oldi gajetni ishlatayotganlar uchun ayni muddaodek tuyuldi. Lekin men uning narxini emas, nega kerakligini, qanchalik foydalanishimiz mumkinligini o‘yladim, aynan narxi orqali. Fikrimni asoslashga harakat qildim.

Qimmat pulga olingan telefonlar kerakmi? Ko‘pchilikka keragi yo‘q.


Harbiy sohada bilasizmi nima bor: “intizom”, ya’ni tartib-qoida. Telefonlardan foydalanishda ham aynan tartib, zamonaviy tilda aytganda stil bo‘lishi kerak.

O‘qishdan chiqib, bekatda avtobus kutayotgan edim. E’tiborimni qizaloqning ovozi tortdi. Uni diqqat bilan kuzatdim. Qizaloqning onasi, “Qizim, hozir, shoshma, to‘xtab tur!” deb telefondan boshini ko‘tarmas, qizi bilan qiziqmasdi ham. Qizaloq esa ko‘zlarida yosh bilan onasiga tikilgancha turardi. Ko‘z oldimda gavdalangan holatdan hayratlandim. Nahotki, telefon hayotimizning ajralmas bo‘lagiga aylangan, farzanddan ham ustun bo‘lishga ulgurgan bo‘lsa. Bahodir Karim ta’biri bilan aytganda: “Miyasi qo‘lidagi avlod” shakllanib boryapti.

Bugungi o‘sib kelayotgan yosh avlod ertangi kunimiz emasmi?

Asalning ham ozi shirin.

Umida SULAYMONOVA,
O‘zJOKU magistranti



Tadqiqot

EPIK SAN’ATNING QADIMIY ILDIZLARI

Insoniyat ma’naviyatining tub ildizlari juda qadimga borib taqaladi. Ibtidoiy jamoa davridayoq insoniyat tafakkuridagi evolyutsiya tilning rivojlanishiga, har ikkalasi esa ma’naviyatning yuksalishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Masalan, ibtidoiy jamoa davridayoq paydo bo‘lgan dastlabki folklor asarlarining yaratilishi diniy e’tiqodlar bilan uzviy bog‘liqdir. Zero manbalarda “Avesto” kitobiga tegishli “Videvdat” majmuini faqat kohinlar kuylab, uning to‘liq matnini keyingi avlodlarga yetkazgani keltiriladi. “Avesto”dagi “goh”lar faqat kohinlar tomonidan o‘qilgan. “Goh” – Zardusht badiha yo‘li bilan yaratgan da’vat so‘zlari bo‘lib, “Avesto”ning “Yasna” kitobida 17 ta “goh” – qo‘shiq saqlangan. Ularni yod o‘qish o‘ta savobli hisoblangan. “Avesto” “goh”larini yod o‘qish oddiy she’r o‘qish emas, balki kuy ohangida qiroat bilan matn mazmunini tinglovchiga yetkazish hisoblanadi. Buni faqat mutaxassis kohinlargina ijro etishgan. Kohinlar esa shomonlarning ilk avlodi sanaladi.

Shu bilan birga olimlar kohinlarni hozirgi baxshi va xalfalarning ilk avlodi, ekanligini ta’kidlashadi. Kohinlar oddiy yoki tasodifiy kishilar bo‘lmagan. Ular qobiliyatli, yuksak iqtidor egasi bo‘lgan shaxslardan tanlangan. Chunki ular ezgu g‘oyalarni ishontirish usuli bilan omma ongiga yetkazgan. Shu sababli kohinlar va shomonlarning shaxsiga oid turli afsonalar uchraydi. Bunday shaxslar ilohiy qudratga ega bo‘lib, ularga ushbu kasb, asosan, tushida armug‘on qilinadi. Bu xususda ko‘plab xalqlar folklorida turli asotirlar yaratilgan.

Jumladan, V. Jirmunskiy birinchi anglosaks shoiri va kohin Kedmon *(Caedmon)* haqida quyidagi asotirni keltiradi. KedmonVII asrda monastir kohini bo‘lgan. U o‘zining qo‘shiq aytish san’ati bilan mashhurlik qozongan. Ammo shuni aytish joizki, u qo‘shiq kuylash san’atini oddiy kishilardan o‘rgangan emas, balki bunga iqtidori bo‘lgan. Kedmon katta yoshga yetganda ham qo‘shiq kuylashdan yiroq kishi bo‘lgan. Bir kuni katta ziyofat bo‘lib, do‘stlar yig‘ilganda musiqa avjiga chiqib, qo‘shiq kuylash navbati unga yetganda Kedmon qobiliyatsizligidan uyalib, davradan qochib ketadi. U shu kechasi yotib uxlab, tush ko‘radi. Tushida notanish kishi uning qoshiga kelib, qo‘shiq kuylashni iltimos qiladi. Kedmon esa qo‘shiq kuylay olmasligini aytadi. Ammo notanish kishi uni olamning paydo bo‘lishi haqidagi qo‘shiqni kuylashga majbur qiladi. Kedmon buyruqni bajaradi. Ertalab o‘rnidan turgach, qo‘shiqni eslab, kuylashni boshlaydi. Uning olamni kashf etgan Xudoga bag‘ishlangan gimn-madhiyasi anglosaks tilida hozirgacha saqlangan.

V. Jirmunskiy “Легенда о призвании певца” *(“Kuychining chorlovi haqida afsona”)* deb nomlangan ushbu maqolasida Kedmon haqidagi ushbu afsonani keltirar ekan, undagi voqealarni Sharqda tarqalgan kuychi-qo‘shiqchi-baxshilar haqidagi rivoyatlar bilan qiyoslaydi: “Ko‘pgina o‘zbek baxshilari ham Kedmon kabi biror joyda, aksariyat daraxt ostida uxlaydi. Uning tushida biror notanish kishi *(ko‘p hollarda ilohiy shaxslar)* kelib “Sen baxshi bo‘lasan”, deb ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi. Bo‘lajak baxshi esa tushida kuy chalib, qo‘shiq aytadi. Uyg‘ongan paytda yonida hech kim bo‘lmaydi. Ammo shu kundanoq kuychi-baxshiga aylanadi”. Baxshilarga tushida iste’dod, idrok in’om etilishi aslida shomonlik davridan qolgan an’analarning davomidir.

Xorazmda shomonlik vazifasini so‘nggi davrlarda po‘rxon *(parixon)*lar amalga oshirgan. “Shomonlikka da’vat, avvalo tushda kechadi. Kishiga tushida shomonlikka daxldor asboblar – doira, qamchi hadya etiladi. O‘z navbatida unga tabib, ta’birchilik kasbi ham ato etilgan. Shomonlikning ilohiy kasb ekanligi, u ayrim kishilarga tushida tuhfa qilinishi hodisalari o‘tgan asrning 30-yillarida Xorazmga kelgan L. Potapovning tadqiqotlarida ham qayd qilingan.

Soz va so‘z ustalarining qadimgi shomonlik, tabiblik, afsungarlik kasbkorlariga aloqadorligi folklorshunos olim To‘ra Mirzayevning tadqiqot ishlarida, ayniqsa, ishonchli dalillar orqali yoritib berilgan. Uning yozishicha, Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi vakili Egamberdi Ollamurod o‘g‘li (1895–1972), baxshichilik vazifasini “qo‘shnoch”, “qoqimchi” kasbi bilan birga olib borgan. U ayrim bemorlarni turli usullar ishlatib, afsun o‘qib “davolagan”. Hatto taniqli baxshi Ergash Jumanbulbul o‘g‘li ham ayrim qishloqlarga borganida “qo‘shnochlik” vazifasini bajargan. *(Bu haqda ham To‘ra Mirzayevning tadqiqotlarida ma’lumotlar keltirilgan).*

Umuman olganda, har bir kasb-korning qadimiy ildizlariga razm solinsa, uning birikkan-sinkretik mohiyati oydinlasha boradi. Chunki ibtidoiy jamiyatda barcha murakkab vazifalarni amalga oshirish ongli, aqlli, iste’dodli, qobiliyatli kishilar zimmasiga tushgan. Bunday toifa kishilar esa tabiiy ravishda kam bo‘lgan. Shu sababli oddiy avom xalq bunday shaxslarni ilohiylashtirib, ulardagi donolik sifatlari ilohiy berilgan, degan xulosaga kelgan. Bunday shaxslar haqidagi yuqorida keltirilgan afsona, rivoyatlar zamirida ham o‘sha hodisa yotadi.

Folklorshunos olim To‘ra Mirzayevning qayd etishicha, “baxshi” atamasining negizida ham turli qarashlar mavjud bo‘lib, uning sinonimik ifodalari ham nihoyatda ko‘p. Baxshi – ijodkor va ayni paytda epik an’analarni saqlovchi va kelgusi avlodlarga yetkazuvchi ham. Baxshichilik san’atini xalq juda e’zozlaydi. Shu boisdan ham “Baxshili ovul botir, mullali ovul qo‘rqoq” degan maqol keng tarqalgan. Balki shu sababli ham baxshilarning xotira va hofiza qudrati hamisha ilohiylashtirib kelingan.

Buyuk o‘zbek yozuvchisi, akademik Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek baxshi shaxsi haqida shunday yozadi: *“Rivojlangan yozma adabiyot paydo bo‘lgunga qadar O‘rta Osiyo xalqlari o‘z ona tilida boy va rang-barang folklor asarlari, qo‘shiqlar, ertaklar dostonlar ijod qilishdi. To‘ylarda, sayillarda, bayramlar va yangi manzillarga ko‘chishda xalq kuychilari-baxshilarning yoqimli ovozi, qo‘biz va do‘mbiralarning ohanglari yangrab turdi. Baxshilar oddiy mehnatkashlarning mashaqqatli mehnatlari, qabila-urug‘lar tarixi, el bahodirlarining buyuk qahramonliklarini baland ruhda kuylab kelishdi. Og‘zaki xalq adabiyotining asosini qahramonlik dostonlari tashkil etadi. Xalq ijodiyotining buyuk yodgorligi bo‘lgan dostonlar o‘z xalqining buyuk qahramonlari amalga oshirgan mislsiz jasoratlarini monumental obrazlar orqali ifodalab beradi. Doston qahramonlari xalqning haqiqat va adolat haqidagi g‘oyalarini tashuvchi oliyjanob insonlardir. Xalq ijodiyotining ushbu xazinasi ming yillar davomida paydo bo‘lgan xalq donishmandligining buyuk boyligidir”.*

O‘zbek xalqi orasida doston kuylovchilarni “baxshi” deb atash bilan birga bu atamaning har xil shakllari uchraydi. Respublikaning turli hududlarida tarqalgan “shoir”, “jirov”, “oqin”, “sannovchi”, “oxun”, “soqi”, “jirchi”, “sozchi” kabi atamalar negizida ham “baxshi” ma’nosi anglashiladi. Bundan tashqari, eng mashhur baxshilar xalq orasida hurmat yuzasidan “chechan”, “juyruk”, “bulbul” kabi nomlar bilan ham atalgan. Ammo so‘nggi yillarda “baxshi” atamasi asosiy nom sifatida mustahkamlanmoqda.

Alisher Navoiy yashagan davrda ushbu atama kotib, mirzo ma’nolarida ishlatilgan. V. Bartold baxshi atamasining sanskritcha “bhikshu” so‘ziga aloqadorligini ta’kidlaydi. Taniqli folklorshunos Hodi Zarif esa mazkur atamaning etimologiyasiga to‘xtalib, uni mo‘g‘ulcha va buryatcha baxsha, bag‘sha *(ustod, ma’rifatchi)*, sanskritcha bhikshu *(qalandar, darvesh)* so‘zlaridan olinganligini ta’kidlaydi.

Olimning qayd etishicha, baxshi atamasi o‘zbeklarda uchta ma’noda ishlatiladi:


1. Xalq dostonchisi, san’atkor.
2. Ibtidoiy dinga aloqador shomonlikka xos yomon va yaxshi ruhlarga tayanib afsungarlik qiluvchi shaxs.
3. Mo‘g‘ullar davrida budda dinidagi qalandarlar, kotiblar, Boburiylar davridagi ayrim amaldorlar ham baxshi deb yuritilgan.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida ham o‘sha fikr takrorlanadi. Boshqa turkiy xalqlarda ham baxshi atamasi bilan birga uning turli muqobillari qo‘llaniladi. O‘z navbatida, ularning turlicha vazifalar bilan shug‘ullanishi haqida ma’lumotlar uchraydi. Baxshi atamasi qozoq va qoraqalpoqlarda baqsi, qirg‘izlarda baqshi, turkmanlarda bagshi shaklida talaffuz qilinsa, yoqutlarda oyuun, Oltoyi xakas tuvalarda qam, qalmiqlarda jangarchi, tunguslarda shaman, turklarda ozan shaklida uchraydi. Ozarbayjonlarda ashug so‘zi bizdagi baxshi ma’nosida qo‘llaniladi. Biroq ozarbayjon folklorshunoslarining yozishicha, qadimda ashug so‘zi o‘rnida varsag so‘zi ishlatilgan. Bu atamaning ma’nolari quyidagicha bo‘lgan: a) soz sohibi; b)cholg‘u ustasi; v) aktyor. Shu bilan birga, bu atama bilimdon, ijodkor ma’nolariga ham ega bo‘lgan.

Varsaglar ashuglar ajdodidir. Shu narsani qayd qilish kerakki, Xorazm o‘g‘uz lahjasida ashug va varsag so‘zlari ayrim tovush o‘zgarishlari bilan saqlanib qolgan. Ushbu vohada tarqalgan “Oshiq G‘arib”, “Oshiq Mahmud” kabi dostonlarning birinchi komponenti ashug so‘zi bilan aloqador bo‘lib, qo‘shiq kuylovchi, baxshi ma’nosiga ega. “Oshiq” so‘zi bilan “ashug” so‘zini farqlash lozim, birinchi atama arabcha ishq so‘zidan olingan bo‘lsa, keyingi atama baxshi, kuylovchi ma’nosiga ega. Ammo ashug so‘zi tovush o‘zgarishi orqali “oshiq” shakliga ko‘chgan.

Endi varsag atamasiga kelsak, Xorazm dostonlarida ushbu so‘z ko‘p takrorlanadi: “Onda Go‘ro‘g‘libek yigitlariga qarab bir varsoqi aydi”. Dostonlarda ishlatiladigan bu so‘z o‘z asl ma’nosidan ancha uzoqlashgan. Varsag so‘zi aytuvchi, kuylovchi shaxsni anglatsa, varsoqi so‘zi afsona, so‘z, gurung ma’nosiga ko‘chgan. Biroq bu ikki so‘zning tub ma’nosi baribir bir-biriga mos keladi. Demak, ashug va varsag so‘zlari o‘g‘uz tilli turkiy xalqlar ijodida bir vaqtlari faol ishlatilgan. Bundan xulosa qilish mumkinki, varsag so‘zladi varsoqi so‘zladi birikmalaridagi ma’no o‘zaro ancha yaqin keladi.

Nasiba SABIROVA



MA’RIFATGA

Ma’rifatparvar jadid bobolarimizning Vatanimiz taraqqiyoti, millatimiz ravnaqiga qo‘shgan hissasi bugungi kunda davlat siyosati darajasida muhim ahamiyatga ega. Prezidentimizning: “Ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi tabiiy.
Bu kimgadir yoqadimi yoki yo‘qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko‘rsatib bergan yo‘ldan og‘ishmay borishi kerak. Chunki ularning g‘oya va dasturlari Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir”, degan so‘zlari aslida bugungi kunning shioriga aylanishi kerak, desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. “Jadid munaqqidi Vadud Mahmud”, “Qodiriy qadri”, “Yangilanish sog‘inchi”, “Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur”, “Qodiriy asari – nafosat qasri”, “O‘tkan kunlar” ibrati”, “Abdulla Qodiriy fenomeni” kabi kitoblar, yuzlab adabiy-ilmiy maqolalar muallifi, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiyi Bahodir Karim bilan qilgan suhbatimiz ham jadid bobolarimizning hayoti, ijodi, adabiy merosi xususida kechdi.



– Ustoz, ayting-chi, jadidlarning bugungi kundagi hayoti va ijodini o‘rganish qay darajaga kelib qoldi?

– Jadidlar hayoti, ijodi va faoliyatini o‘rganish jarayonlari ular yashab va ishlab turgan zamonlardayoq boshlangan edi, ya’ni bu harakat XIX asr oxiri XX asr boshlarida maydonga kelgan bo‘lsa, o‘sha davrda jadidlar kimlar degan masala o‘rtaga qo‘yildi. Qadimchi va jadidchi masalalari o‘sha zamon matbuotida ham yoritildi. Ijtimoiy-siyosiy, madaniy-adabiy bu voqelik ko‘lami keng. Hozirgi kunga qadar – bir asrdan ko‘p bo‘ldi, hamon o‘rganib kelinadi. Shuhratli jadid adiblarining faoliyati muhokama qilinib, asarlari o‘z vaqtida nashr qilingan bo‘lsa, 30-yillar oxiridagi qatag‘ondan keyin ular uchun barcha umid eshiklari taqa-taq yopildi. Hatto ijobiy biror sifat bilan ularning ismlarini tilga olishga yo‘l berilmadi. XX asr ikkinchi yarmida ularga munosabat biroz o‘zgardi. Biroq to‘liq oqlangani yo‘q. Bu ma’lum, barcha biladigan tarix. Jadidlarning xizmatiga xolis va to‘g‘ri baho berish istiqlol yillarida boshlandi. Qarangki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda kechayotgan islohotlar natijasida jadidlar faoliyatining juda ko‘p jihatlari diqqatimizni tortdi. Ularning orzu va intilishlari bugungi davr uchun nihoyatda muhim hamda yangi zamonga mos ekani ayon bo‘ldi.

Jadidlar o‘z vaqtida juda ko‘p ezgu niyatlarni oldiga qo‘yishdi. Taraqqiy etgan Vatan – ular orzusi edi. Bu yo‘lda bir muddat orzulari ushalgandek bo‘ldi ham: Turkiston Muxtoriyati e’lon qilindi. Ammo afsuski, ularning orzulari, niyatlari oradan ko‘p o‘tmay, armonga aylandi. Aynan millatparvarligi, muhtasham bunyodkor fikrlari uchun jadidlar qatag‘on qilindi. **Millat gullarining boshlari qirqildi**. Biz ko‘p narsadan bebahra qoldik. Agar oqayotgan suvning oldi to‘silsa, oqqan daryo o‘zani boshqa tarafga burilsa, asl o‘zanning yantoq yo‘llari cho‘lga aylanadi. Buni qarangki, jadidlarning orzulari ro‘yobga chiqqan zamonlarda biz istiqomat qilmoqdamiz. Ularning hayoti va ijodini o‘rganish, asarlarini nashr etish – mana bu ular yurgan ezgulik yo‘lining davomi, albatta. Jadid allomalari istiqlol uchun jon fido qilishdi, shu yo‘lda qatag‘onga uchradi. Biz ularning ruhini shod etish uchun har bir jadid qismati bilan qiziqyapmiz, o‘rganyapmiz. Tarix – bu oyna, bahaybat ko‘zgu. Unga qarab, biz qiyofamizga qaraymiz, o‘z maqsadlarimizni bir tizimga solamiz, tarozida tortamiz. Agar bashariyat tarixi ibrat maktabi hisoblansa, biz ulardan saboq olishimiz lozim. Ana shunday ulkan mashg‘ulotlarni ado etgach, ya’ni saboqdan keyin bugungi kunga nazar solamiz. Xo‘sh, bugun qanday kun? Takror aytamanki, jadidlar orzu qilgan istiqlol zamoni, farovon zamon, tinch zamon. Ayni damda shu tuproqni gullatib-yashnatib obod qilish zamonidir. Jadidlar hamisha yangilikka intildi. Darvoqe, aslida har qanday odam tabiatida yangilikka intilish tuyg‘usi bo‘ladi. Bugun Yangi O‘zbekiston muhitida yashayapmiz. Bunda jadidlar ilgari surgan g‘oyalar, fikr va qarashlarni hayotga tatbiq etish, inson miyasining qaysidir bir burchagida uxlab yotgan hujayralarni uyg‘otish jarayonlari kechmoqda. Zotan men, aynan mana shu qalb tarbiyasi sohasida, muallim sifatida o‘ttiz yildan beri talabalarga dars beraman. O‘ttiz yildirki, jadidlar hayotining sahifalarini ular nashr etgan gazeta va jurnallar bilan qo‘shib varaqlayman. O‘qiyman. O‘qiganim sari ular qalbini teranroq uqqandek bo‘laman. To‘g‘risi, ruhiy holat ularning kayfiyati bilan uyg‘unlashar yurak urishlari ular bilan birlashar ekan. Garchand ko‘pchilik jadidlar ellik yoshga yetmay qatl qilindi. Ammo ular qaysidir ma’noda mening jo‘ramga, do‘stimga o‘xshaydi. Agar tirik bo‘lganlarida ular bilan eng yaqin do‘st, jo‘ra bo‘lar edim. Shu Vatan obodligi, tinchlik, taraqqiyot yo‘lida, mudragan ko‘ngillarni uyg‘otish anjumanlarida ular bilan birga odimlagan bo‘lar edim. Yugurib-yelib charchagan mahali ular bilan gap-gashtaklarda birga gurunglashar edim. O‘y-xayol bu. Aslida sadoqatli jon do‘stlar hamma zamonlarda ham qahat bo‘ladi!

– O‘zbek tili jonkuyarlari sifatida qaysi jadid namoyandalarini millat tili jonkuyarlari, fidoyilari deya sanay olasiz?

– Jadidlarning hammasi ham tilga e’tibor berdi. Turkiston jadidlarining boshchisi Mahmudxo‘ja Behbudiy “Ikki emas, to‘rt til kerak” dedi. O‘zbek tilining jonkuyari sifatida maxsus maqolalar yozdi. Tilga e’tibori o‘zi nashr etgan “Samarqand” gazetasi, “Oyina” jurnalida ham o‘z ifodasini topdi. Jurnal muqovasida nomi bir necha tillarda berildi. Turkistonliklar zamon bilan hamnafas bo‘lishi, zamonaviy ilmlar, fikrlardan bahramand bo‘lishi uchun “turkiy, forsiy, arabiy va rusiy” tillarni bilishi, ularda bemalol muloqot qilish darajasiga yetishish lozimligi ta’kidlanadi. Zero jadidlarning tilga e’tibori juda ko‘lamli hodisa. Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romani bilan o‘zbek tilining naqadar boy ekanini, badiiy ifodasi juda kengligini namoyon qildi. **“O‘zbek tili kambag‘al emas, balki o‘zbek tilini kambag‘al deguvchilarning o‘zi kambag‘al. Ular o‘z nodonliklarini o‘zbek tiliga to‘nkamasinlar”** deydi adib. Abdurauf Fitrat o‘zbek tilining nazariy jihatlarini ishladi. O‘zbek tilining grammatikasini – “sarf va nahvi”ni yozdi. Yana bir muhim jihat – “Chig‘atoy gurungi” atrofiga til va adabiyot jonkuyarlarini jamladi. Ular tilimizning sofligi, boyligi uchun, turkona so‘zlarning joriy tilga kirib kelishi uchun kurashdilar. “Chig‘atoy gurungi” a’zolari Turkistonning turli hududlari, chekka qishloqlariga borib so‘z izlashdi. Bu shunchaki safar emas. Buning nomini chin ma’nodagi fidoyilik, deb nomlash lozim. Ular tomonidan o‘zbek adabiy tilga olib kirilgan so‘zlar, atamalari hozirgi kunga qadar tilimizda faol ishlatiladi.



O‘ZIMIZ BOSHLAYLIK...

Yaqinda Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlarini o‘qiyotib, hodisaga mos yasalgan bir ibora e’tiborimni tortdi: “Yo nasib o‘yini”. Buni Behbudiy “lotereya o‘yini” o‘rniga qo‘llagan ekan. Yo nasib qiladi, yo nasib qilmaydi. Juda o‘rinli ko‘rindi menga. Deylik, anavi batareyaning o‘zbekchasi kucholatosh, ya’ni kuch-zaryad-quvvat oladigan tosh. “Batareya” degandan ko‘ra, “kucholatosh” deyish ma’qul emasmi? Agar biz o‘zimizning tilimizga qayg‘ursak, hodisaga mos atamalar topishimiz lozim. Tilga yangi kirib kelayotgan begona so‘zlar ustida fikrlash, mulohaza yuritish foydalidir. Jadidlarning til borasidagi faoliyati shunday o‘ylarni xayolga keltiradi. Kechirasiz, Cho‘lponni eslamaslikning hech iloji yo‘q. She’riyat bobida:

Qorong‘i kechada
ko‘kka ko‘z tikib,
Eng yorug‘ yulduzdan
seni so‘raymen.
Ul yulduz uyalib,
boshini bukib,
Aytadir: men uni
tushda ko‘ramen.
Tushimda ko‘ramen –
shunchalar go‘zal,
Bizdan-da go‘zaldir,
oydan-da go‘zal.

Mana bunday she’rlar Cho‘lpon iste’dodini ko‘rsatadi. She’riyati, nasriy asarlari tili ham ibratli va o‘rnak. Biz jadidlardan namuna olishimiz kerak. Taassufki, XX asrda tilimiz ustida yuritilgan siyosat uning boyish yo‘llarini to‘sib qo‘ygan edi.

Jadidlarning yozgan asarlar tili bilan ulardan keyin yozilgan asarlar qiyoslansa, ularning tilimiz bobida qilgan xizmatlari ko‘zga yaqqol ko‘rinadi...

– Bugun nashriyotlar ham kitoblar ham ko‘p. Ammo o‘quvchi kamdek nazarimizda?

– Endi, bu savolingiz og‘riqli. Hozirgi kunda nashriyotlar ham, gazeta-jurnallar ham ko‘p, lekin inson hamma vaqt bilimga, ma’lumotga, xabarlarga chanqoq bo‘ladi. Ayniqsa, ba’zi bir g‘iybatnisolar g‘iybatga, g‘urbatga chanqoq bo‘ladi. Aslida inson o‘zining miyasini, o‘zining tafakkuridagi bo‘sh joylarini ma’rifat nuri bilan to‘ldirishi kerak. Bugun chanqoq odam ehtiyojini qondiradigan vosita-manbalar ko‘payib ketdi. Bu internet tarmog‘i, turli xil ijtimoiy o‘zanlar, ayni damda, gazetalar va kitoblardir. Albatta, kitoblarning qadri bebaho, uni elektron shaklida o‘qiyotganlar bor, nashriyotdan chiqqanini o‘qiyotganlar bor. Nazarimda sekin-asta bizda nashriyotlar rutbasi, darajasi farqlanib boryapti. Ya’ni mas’uliyatli rahbarlar, ma’rifatli, bilimli bo‘lgan muharrirlar, o‘z ishining ustasi bo‘lgan musahhihlar ishlayotgan nashriyotlar bor. Ayni damda har qanday asarni nashr qilib yuboraveradigan mas’uliyatsiz tojirlar ham yo‘q emas.

Nashriyotlarning muharrirlari, musahhihlari va mas’ullari har bitta so‘zga ehtiyotkor bo‘lishi kerak deb o‘ylayman. Bitta so‘zning xato ketishi fojiaga o‘xshab ko‘rinmaydi. Lekin asosini, negizini tekshirsa, juda katta fojia bo‘ladi. Deylik **“bo‘ldi”** degan so‘zning o‘rniga boshidagi bitta harf tushib qolsa, **“o‘ldi”** bo‘ladi. Eng oddiy va sodda tushuncha bu. Agar “odam” degan so‘zning o‘rnida “adam” yozilsa, bu holda “odam” yo‘qolib qoladi. Shuning uchun har bitta so‘zga e’tibor qaratish juda zarur va muhim. Men “O‘tkan kunlar” kitobini qaysidir bir nashriyotda chiqqanini o‘qib turib, **“xon janoblari”** birikmasi o‘rnida **“jon janoblari”** yozilganini ko‘rdim. Albatta, bu kompyuterda ketgan kichik texnik xato. Lekin xon kim-u, jon nima! Ikkovi ikki dunyo, ikkovi ikki xil ma’no. Ba’zi bir nashriyot egalari boyishni xohlaydi. Maxtumquli hazratlari aytmoqchi: “Boy bo‘lay deb, izzatingdan ayrilma”. Muhtaram nashriyot egalari, siz boy bo‘lishingiz mumkin. Lekin inson uchun izzat boylikdan kam emas. Har qanday ziyoli, har qanday muharrir, har qanday nashriyotning rahbari moddiyat bilan ma’naviyat uyg‘unlashganida asl inson qiyofasida maydonga chiqadi. Bilaks, jaholatga botadi. Johil esa ko‘rday bo‘ladi.

– Ustoz, tilimizni asrash bo‘yicha juda ko‘p bong uriladi. Buning uchun aslida nimalar qilish kerak?

1989-yilning 21-oktabr kuni “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Mustabid tuzum zamonida shu voqelikning sodir bo‘lishi ulkan bir inqilob edi. Men o‘sha vaqtda, hozirgi O‘zbekiston Milliy universitetining o‘zbek filologiya fakulteti talabasi edim. Ammo bir talaba sifatida o‘sha izdihomda, o‘sha jarayonlarda ishtirok etganimdan hali-hanuz mamnun bo‘lib yuraman. Mustaqillik maydonidan biz shiorlar ko‘tarib, o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilsin, degan talabni aytib, to talabalar shaharchasigacha piyoda borganmiz. Inson hayoti ulkan bir kitobga o‘xshaydi. Uning sahifalari har xil. Bugun bundan o‘ttiz yil oldingi voqealarni, ayniqsa, o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kunlarni faxr va iftixor bilan eslayman. Chunki haqiqat talabida yurgan, yangilikka intilgan, o‘zbek tilining jonkuyari sifatida ko‘chaga chiqqan, mitinglar o‘tkazgan do‘stlarim qatorida men ham bor edim. O‘sha izdihomlarda, til bayramlarida nutq so‘zlagandim. O‘shalardan birining matni kitob javonimdan chiqib qoldi. Sarg‘ayib ketgan bo‘lsa-da, u tabarruk bir esdalikdir. O‘zbek tilining bugungi ahvoli haqida gapiradigan bo‘lsam, tilga hamisha e’tibor lozim. Yaqinda Ashxobodga bordik. Yo‘l-yo‘lakay ko‘chalardagi turli yozuvlar, peshlavhalarni ko‘zdan kechirdik. Bari turkman tilida yozilibdi. Bizning poytaxtimizga va qadimiy shaharlarimizga keladiganlar, taassufki, ko‘chalarimizga osilgan, ilingan peshlavhalardan, yozuvlarini o‘qib, o‘zining savodini o‘nglay olmaydi. Holbuki yurtimizga kelgan xorijlik ko‘cha yozuvlariga qarab ham qaysidir ma’noda saboq olishi mumkin. Ko‘p vaziyatlar o‘zimizga bog‘liq. Deylik, do‘kon, oshxona, o‘quv dargohi, nashriyot yoki restoran ochgan odamning, nahotki o‘zbekona biror so‘z izlashga hafsalasi yetmaydi? Nahot bitta chiroyli so‘z topa olmaydi?! Negadir ajnabiy so‘zlarga osilib olishgan. Go‘yoki o‘quv markazigami, kafe-restorangami, nashriyotgami ajnabiycha nom beradigan bo‘lishsa, xorijlik sayyohlar yopirilib kelarmish!

Muhtaram boylarimiz, pullari ko‘p boyonlarimiz, yangi-yangi maskanlar ochinglar, xususiy maktablar, oliy o‘quv dargohlari, do‘konlar, oshxonalar, ulkan-ulkan sport inshootlari quringlar, faqat bir gap, ochilgan shu joylar nomi turkona bo‘lsin, o‘zbekcha bo‘lsin! Yurtimizga kelgan xorijlik, deylik, shu yozuvni o‘qib ham aqalli bitta so‘zga o‘z lug‘atini boyitib olsin. Bu mening og‘riqli dardlarim. Birovning yuz-ko‘zi uchun aytiladigan gaplar emas... Bugun chet tillarni o‘rganayotgan yoshlar juda ko‘p. Xorij tilini o‘rganadi, sertifikat oladi. Maqsad mana shu bir parcha qattiq qog‘ozni, o‘sha sertifikat ballarini ijtimoiy o‘zanlarda e’lon qilib maqtanishmi? Til o‘rganishdan asl maqsadi nima? Bu savolga ko‘pchilikning javobi yo‘q. Maqsadi chet elga borish, maqsadi Green-Card yutish, maqsadi magistratura yoki doktoranturaga kirish. Lekin nazarimda, til o‘rganayotgan har bitta o‘zbekning qorako‘z farzandi, eng avvalo, o‘zi tug‘ilib o‘sgan shu muqaddas yurt tarixi, madaniyati, adabiyoti va tilini boshqalar madaniyati va tarixidan kam emasligini namoyon eta olishi kerak. Dunyoning qaysidir bir burchagi Alisher Navoiy yoki Zahiriddin Muhammad Boburga biror noma’qul sifatni taqaydigan bo‘lsa, xorij tilini mukammal biladigan, qalbida milliy g‘ururi shakllangan yoshlar uni o‘nglashi, tarix haqiqatini joy-joyiga qo‘yishi lozim. Buning uchun yoshlar bilimdon bo‘lishi, eng avval, o‘z ona tilini mukammal bilishi kerak. Bizning yurtimizdan chiqqan allomalarni sanaydigan bo‘lsak, o‘nta barmoq bir necha marotaba to‘ladi. Dunyoda shunday rivojlangan mamlakatlar bor, osmono‘par binolar qurgan-u, lekin ularning yurtidan insoniyat tamadduniga, bashariyat ilm-fani va madaniyatiga o‘zining chigitdek, zarracha ulushini qo‘shmagan bo‘lishi mumkin. Biz bu jihatni ham esdan chiqarmaylik...

Jadidlar ulug‘larni ulug‘lashdi. Ular dastavval o‘z ona tilimizni mukammal bilib, mustahkam e’tiqodga ega musulmon bo‘lgandan keyingina boshqa bir tilni o‘rganaylik, deyishdi. Zotan bugun, aynan ilm-fan taraqqiyoti, tarix bilimi, til ta’limi masalasida ham, ona tilini sevish, boyitish masalasida ham, istaymizmi-yo‘qmi, qayta-qayta jadidlarga qaytaveramiz.

Zarnigor IBRAGIMOVA
suhbatlashdi.

QADRIYATLAR MOHIYATIGA YO‘L

Qadriyat. Qadr-qimmat. Milliy va ma’naviy meros. An’ana va urf-odat. O‘tmish va kelajak. Ushbu tushunchalarning zamirida insonning o‘zligini namoyon qilib turadigan ma’no mujassam. Qadriyatlar ijtimoiy tarixiy taraqqiyotning mahsuli sifatida o‘z ildiziga, vorisiylikka ega. Qadriyat insonlar uchun qadrli, e’zozli bo‘lgan narsalar, jarayonlardir. Qadriyatlar juda sermazmun va ko‘p qirrali tushuncha. U birinchidan, biror obyektning ijobiy yoki salbiy qimmatini ifodalasa, ikkinchidan, ijtimoiy ongning normativ belgilovchi – baholovchi jihati *(subyektiv qadriyatlar yoki ong qadriyatlari)*ni ifoda etadi. Shunga ko‘ra, obyektiv *(ashyoviy)* va subyektiv *(ong)* qadriyatlari bir-biridan farqlanadi.



Qadriyatning birinchi ko‘rinishi, ya’ni obyektiv *(ashyoviy)* qadriyatlarga – tabiiy boyliklar va tabiat hodisalari *(yaxshilik va yomonlik nuqtayi nazaridan baholanadi)*; mehnat mahsullarining iste’mol qiymati *(umuman foydalilik)*; ijtimoiy hodisalarda mujassamlashgan ijtimoiy ezgulik va yovuzliklar; tarixiy hodisalarning progressiv yoki reaksion ahamiyati; hozirgi zamon kishilarining boyligi sifatida namoyon bo‘luvchi moziyning madaniy merosi; ilmiy haqiqatning foydali samarasi yoki nazariy ahamiyati; kishilarning xatti-harakatlarida ifodalanuvchi axloqiy yaxshilik yoki yomonlik; tabiiy va ijtimoiy obyektlarning hamda san’at asarlarining estetik jihatdan tavsiflanishi; sajdagohlar, diniy ibodat buyumlari va boshqalar ashyoviy qadriyatlarga kiradi.

Ong qadriyatlariga normativ tasavvurlar, yaxshilik va yomonlik, adolat, go‘zallik va xunuklik haqidagi, tarixning ma’nosi va insonning vazifasi haqidagi tasavvurlar, ideallar, harakat normalari va prinsiplari tarzida ifodalangan ijtimoiy ko‘rsatmalar va baholar, talab va taqiqlar, maqsad va loyihalar kiradi. Qadriyatlar ichida eng birinchi va eng umumiysi hayotning o‘zidir, chunki hayotdan mahrum bo‘lish qolgan barcha qadriyatlardan foydalanishni yo‘qqa chiqaradi... qolgan qadriyatlar, aslini olganda, hayot ne’matlarining mohiyatidir, madaniy qadriyatlardir”. V. Tugarinov “qadriyat” va “baho” tushunchalarini bir-biridan farqlash zarurligini uqtiradi. Qadriyat real yoki orzudagi hodisa *(bor narsa yoki ideal)*dir, baho esa shu hodisaga munosabatni bildiradi.

U yoki bu hodisani qadriyatlarga mansub hisoblash, ya’ni uni qadriyatlarga qo‘shish yoki qo‘shmaslik ana shu munosabatga ijobiy yoki salbiy bahoga bog‘liq.

Qadriyatlarning hayotdagi o‘rni va ahamiyati baholash tufayli belgilanadi. Baholash esa insonlarning ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadlari, qiziqishlaridan kelib chiqadi. Ma’lumki, jamiyat a’zolarining ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadlari xilma-xil bo‘lib, ko‘pincha ular bir-biriga zid kelishi mumkin. Shuning uchun ham muayyan ijtimoiy guruhlar, millatlar, sinflar uchun oliy qadriyat bo‘lib hisoblanib kelingan tabiat va jamiyat hodisalari boshqalar uchun qadriyat bo‘lmasligi ham mumkin va aksincha. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkin: tabiat va jamiyat hodisalarini qadriyat turkumiga kiritish va kiritmaslik kishilarning ehtiyojlari, manfaatlari, orzu-istaklari, maqsadlari bilan belgilanadi.

Demak, qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui tushunilmog‘i lozim. Demak, bundan ko‘rinadiki, milliy qadriyatlar bizning milliy manfaatlarimizni, bugungi va ertangi orzu-intilishlarimizni o‘zida mujassamlashtirgan, jamiyat va davlat taraqqiyoti talablariga to‘la javob bera oladigan, yillar o‘tgani sari insonlar uchun qadri ortib boradigan g‘oya va tushunchalardan iborat bo‘lishi kerak.

MILLIY QADRIYATLAR – MA’NAVIYATNING ENG MUHIM TARKIBIY QISMI SIFATIDA

Qadriyatlarga tadqiqotchi olimlar bir qancha ta’riflarni berishadi. Jumladan, “Qadriyatlar – jamiyatda kishilar o‘rtasida obro‘ga, e’tiborga, hurmatga, nufuzga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma’naviy boyliklar majmuasi”, “Qadriyat inson va jamiyat ma’naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha” va boshqalar.

Qadriyatlar amal qilish doirasiga ko‘ra milliy, mintaqaviy va umuminsoniy turlarga bo‘linadi. Biz ushbu maqolada milliy qadriyatlar, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati haqida so‘z yuritamiz.

Milliy qadriyatlar millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlari, an’analarini, jamiki moddiy va ma’naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlarini qamrab olishi bilan murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Insonning qaysi millatga mansub ekanligi haqidagi tasavvuri faqat g‘oyagina emas, balki tuyg‘u hamdir. Bu tuyg‘u kishida millatning tarixi, ruhiyati, hozirgi holati va xususiyatini tushunish, his qilish shaklida mujassamlashgan bo‘ladi. Insonda milliy ong va g‘urur bo‘lmasa, u o‘zining qaysi millatga mansubligini his etmasa, uning milliy qadriyatlarini anglashini tasavvur qilishi qiyin. Toki millatlar, milliy mafkuralar mavjud ekan, milliy munosabatlar ham, milliy his-tuyg‘ular ham, milliy qadriyatlar ham saqlanib qolaveradi. Millatni milliy qadriyatlardan mahrum qilishga urinish tarix va insoniyat oldidagi eng katta jinoyatdir.

Har bir ruhan sog‘lom kishida o‘z qadr-qimmatini saqlash, o‘zini hurmat qilish tuyg‘usi mavjud. Har bir millatda ham xuddi shu holatni ko‘ramiz. Millatlarning o‘z-o‘zini anglash jarayoni takomillashgan sari milliy manfaatlar ham, milliy qadriyatlar ham kuchayib, mustahkamlanib boraveradi.

Milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarash millatning o‘ziga hurmat bilan qarashning asosiy bo‘g‘inidir. Ming yillar mobaynida shakllangan milliy qadriyatlarimiz hozirgi davrda yaratilgan madaniy-ma’naviy boyliklar bilan qo‘shilib taraqqiyotimizni tezlatadi, g‘oyaviy va ma’naviy poklanishni ta’mnnlashga ko‘maklashadi. Shuning uchun ham qadriyatlarni avaylab asrash, ularni qo‘riqlash, yuksaltirish alohida inson hayotida ham, jamiyat taraqqiyotida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Ma’naviyatning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri, albatta milliy qadriyatlarimiz hisoblanadi. Qadriyatlar yuqorida ta’kidlaganimizdek, o‘tmish bilan hozirgi kun o‘rtasidagi vorisiylikni ta’minlaydi. Milliy qadriyatlarimizni asliga keltirish va rivojlantirishda xalqimizning ko‘p asrlik an’analari, madaniyati, urf-odatlari, har xil bayramlari, boy qadimiy merosi o‘zining alohida o‘rni va ahamiyatiga ega.

Xalqimiz madaniy merosi, an’analari, urf-odatlari bizlar uchun faqat o‘tmishdan qolib kelayotgan yodgorlikkina emas, barcha ma’naviy boyliklarning tarkibiy qismi, inson aql-idroki va tafakkurining buyuk yutug‘i hamdir. Misol uchun, ajdodlarimizdan bizga meros sifatida qoldirilgan va biz foydalanib kelayotgan bebaho boyliklardan ruhiy oziq, kuch-quvvat olamiz, ularga tayanamiz. Har bir millat va elat ajdodlaridan qolgan bilim boyliklaridan, tajriba va tarixiy saboqlaridan, odob-axloq, ta’lim-tarbiyaga oid o‘gitlari va yo‘l-yo‘riqlaridan kelajagini yaratishda qo‘llaydi.

O‘zbek xalqida dunyo tan berib kelayotgan ajoyib insoniy fazilatlar, nodir urf-odatlar mavjud. Oila a’zolarining barchasi to‘planmaguncha ovqat yemay turish, oila boshlig‘ini odob saqlab kutish, ota-onani o‘rnidan turib kutib olish, ularga har doim iltifot ko‘rsatish, kelgan mehmonni izzat-ikrom bilan kutib olish, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr-shafqat, qarindosh-urug‘larga, qo‘ni-qo‘shnilarga, mahalladoshlarga, tanish-bilishlarga yordamni ayamaslik va boshqalar bunga misol bo‘ladi.

Birovlar bilan muomalada odob-axloq qoidalariga qat‘iy amal qilish, o‘zidan kattalar, yoshi ulug‘lar bilan hayo, odob-andisha asosida so‘zlashish, ularga nojoiz so‘zlarni aytmaslik, betgachoparlik qilmaslik, odob-axloq, andishani qo‘ldan bermaslik – bularning hammasi xalqimizning milliy mentalitetiga xos bo‘lgan qadriyatlar hisoblanadi va yuksak darajada e’zozlanadi.

O‘zidan kattalarni, birinchi galda keksa bobolar-u otalarni, nuroniy onalar-u buvilarni hurmat qilish, e’zozlash, ular uchun qo‘ldan kelgan yordamni ayamaslik o‘zbek xalqining an’anaviy qoidasi bo‘lib, ular o‘zbek oilalarida yoshlikdan bolalar ongiga, qon-qoniga, vujud-vujudiga chuqur singdirib yuboriladi, ota-bobolarimiz an’analariga ko‘ra, yoshlar o‘zidan kattalarni ko‘rganda tanish-tanimasligidan, millati va jinsidan qat‘i nazar salom berishlari, yo‘lda ro‘baro‘ kelganda birinchi bo‘lib o‘tkazib yuborishlari, ular bilan samimiy munosabatda bo‘lishlari, iltifotlarini ayamasliklari lozim. O‘zbek oilalarida o‘tadigan bironta ham marosim, to‘y-tomosha, hashar keksalarning maslahatisiz va ishtirokisiz o‘tmaydi. Keksalarning turmush tajribalari, bilim boyliklari, bosib o‘tgan yo‘llari, yo‘l-yo‘riqlari, maslahatlari, saboqlari yoshlar uchun eng katta boylik, bitmas-tuganmas xazinalar konidir.

Xalqimizning madaniy-ma’naviy boyliklari va milliy qadriyatlarini to‘la, odilona egallash va rivojlantirish hozirgi avlodlarning vazifasidir. Gap o‘tmish madaniy-ma’naviy boyliklariga ega bo‘lishdagina emas, balki uni chuqur egallab, yangi, yuksak bosqichga ko‘tara bilishdadir. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, degan fikrlari yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida yetuk, barkamol etib tarbiyalash masalasi dolzarbligini yana bir bor ko‘rsatadi.

O‘tmishga, madaniy merosga hurmat, birinchi galda uning yaratuvchisi, ko‘z qorachig‘idek avaylab-asrovchi va rivojlantiruvchisi bo‘lgan xalq ommasiga ko‘rsatilgan izzat-ikrom, mehr-oqibatdir. O‘zining o‘tmish tarixiga, madaniyatiga, tarixiy merosiga, milliy an’analariga katta e’tibor va hurmat bilan qaraydigan xalqning istiqboli porloq bo‘ladi. O‘tmishdoshlarimizga bizlar qanday munosabatda bo‘lsak, nasl-nasabimiz ham bizlarga xuddi shunday javob qaytarishadi. O‘tmishimizni qanchalik yaxshi bilsak va e’zozlasak, yosh avlodga ham uni anglata olsak, hozirgi davrni, mustaqillik, ozodlikning ahamiyatini shunchalik chuqur va mukammal tushunamiz. Uchinchi Renessans sari qo‘rqmasdan shaxdam qadamlar bilan kirib borishga ham yo‘l ochiladi.

Otabek BOZOROV,
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD

O‘zbekiston kubogi

ENG YAXSHI MOTOKROSS SPORTCHILARI ANIQLANDI



Toshkent viloyatining Olmaliq shahrida O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti tomonidan sportning motokross turi bo‘yicha O‘zbekiston kubogi musobaqasi o‘tkazildi.



Toshkent shahri va viloyatlardan tashrif buyurgan 70 dan ortiq sportchi turli hajmdagi mototsikllarda belgilangan masofalarni bosib o‘tib, marra sari harakatlandilar.

Qizg‘in va murosasiz kechgan poyga bahslari quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

“65 sm³” sinfida:
1-o‘rin: Sherxon Suvonov *(Navoiy v.)*;
2-o‘rin: Daniil Popov *(Toshkent v.)*;
3-o‘rin: Bahrom Bahodirov *(Buxoro v.)*.

“85 sm³” sinfida:
1-o‘rin: Zufar Bahodirov *(Buxoro v.)*;
2-o‘rin: Oybek Qobuljonov *(Navoiy v.)*;
3-o‘rin: Daniil Chichivich *(Toshkent v.)*.

“125 sm³” sinfida *(yoshlar o‘rtasida)*:
1-o‘rin: Ilnur Umerbekov *(Toshkent v.)*;
2-o‘rin: Elbek A’zamqulov *(Navoiy v.)*;
3-o‘rin: Jahongir Sharipov *(Farg‘ona v.)*.

“125 sm³” sinfida *(katta yoshlilar o‘rtasida)*:
1-o‘rin: Imran Ablyazov *(Toshkent v.)*;
2-o‘rin: Bogdan Saturyan *(Navoiy v.)*;
3-o‘rin: Baxtiyor Axmedov *(Buxoro v.)*.

“ChZ sm³” sinfida:
1-o‘rin: Bekzod Halimboyev *(Buxoro v.)*;
2-o‘rin: Shevket Xalimbayev *(Toshkent v.)*;
3-o‘rin: Ruslan Xamidulin *(Toshkent sh.)*.

“500 sm³” sinfida:
1-o‘rin: Andrey Sazonov *(Toshkent v.)*;
2-o‘rin: Aleksandr Fyodorov *(Toshkent sh.)*;
3-o‘rin: Adhamjon Ne’matjonov *(Farg‘ona v.)*.

“750 sm³” sinfida:
1-o‘rin: O‘tkir Berdiyev, Mehriziyod Berdiyev *(Buxoro v.)*;
2-o‘rin: Asror Hayitov, Adham Temirov *(Navoiy v.)*.

“Faxriylar” (*A*) sinfida:
1-o‘rin: Anvar Alimov *(Andijon v.)*;
2-o‘rin: Ruslan Xamidulin *(Toshkent sh.)*;
3-o‘rin: Rauf Abdug‘aniyev *(Toshkent sh.)*.

“Faxriylar” (*B*) sinfida:
1-o‘rin: Yegor Bochkaryov *(Toshkent sh.)*;
2-o‘rin: Nikolay Sharabayev *(Xorazm v.)*;
3-o‘rin: Igor Sichyov *(Toshkent sh.)*.

Jamoa hisobida:
1-o‘rin: Toshkent viloyati;
2-o‘rin: Buxoro viloyati;
3-o‘rin: Toshkent sh.

G‘oliblar va yuqori o‘rinlarni qo‘lga kiritgan sportchilar “Vatanparvar” tashkilotining diplom va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashida Kasaba uyushmalari kuni munosabati bilan bayram tadbiri tashkil etildi.

BIR GURUH FAOLLAR TAQDIRLANDI





Tadbirda O‘zbekiston davlat muassasalari va jamoat xizmati xodimlari kasaba uyushmasining respublika kengashi raisi o‘rinbosari Adhamjon Mirjalilov va “Vatanparvar” tashkiloti raisining birinchi o‘rinbosari Nurmuhammad Mulabayev so‘zga chiqib, so‘nggi yillarda kasaba uyushmalari faoliyatida yangicha ish tizimlari joriy etilayotgani, ayniqsa bugungi kunda respublikamizdagi davlat va nodavlat tashkilotlarining kasaba uyushmalari qo‘mitalari tomonidan xodimlar ijtimoiy himoyasini ta’minlash va ularning haq-huquqlarini himoya qilish borasida salmoqli ishlar olib borilayotgani to‘g‘risida so‘z yuritdilar. Shuningdek, tadbir ishtirokchilariga kasaba uyushmalari faoliyatidagi so‘nggi o‘zgarishlar va yangiliklar haqida ma’lumot berildi.

Tadbir davomida tashkilot markaziy kengashida alohida namuna ko‘rsatib kelayotgan bir guruh xodimlarga hamda ushbu dargohda bir necha yil davomida kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi lavozimida ishlab, hozirda boshqa tashkilotda o‘z faoliyatini davom ettirayotgan Abror Nazirovga esdalik sovg‘alar topshirildi.

Tadbirdan so‘ng ushbu sana munosabati bilan “Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashida “Sport – salomatlik garovi” shiori ostida xodimlar o‘rtasida turli sport musobaqalari o‘tkazildi. Jumladan, xodimlar pnevmatik quroldan o‘q otish, badminton, stol tennisi, darts va bilyard sport turlari bo‘yicha tashkil etilgan musobaqalarda o‘zaro bellashdilar.

Yakunda g‘oliblar va yuqori o‘rinlarni qo‘lga kiritgan xodimlar munosib taqdirlandi.

O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti matbuot xizmati

ALPLAR SAFIDAGI OLOVYURAKLAR

Er yigit maydonda sinaydi kuchin,
Bahodir alplarsiz ortga chekinmas.
Joningiz tikkansiz shu zamin uchun,
Uning har zarrasi aziz, muqaddas!

Kichik serjant Bahromjon USMANOV

SPORTCHI VA KITOBXON POSBON



Qoraqalpog‘istonning Nukus shahridan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan oddiy askar Ernazar Ashirbekov safdoshlari orasida sportchi posbon degan nom olgan. Bu e’tirofning o‘z sababi bor. Sport kollejini bitirgan Ernazar, o‘n uch yoshidan boshlab sportning boks turi bilan shug‘ullangan, boks to‘garagining eng iqtidorli a’zolaridan bo‘lgan. O‘smirlar o‘rtasida boks yo‘nalishida o‘tkazilgan Nukus shahar chempionatida birinchi o‘rin g‘olibligini qo‘lga kiritgan bo‘lsa, Qoraqalpog‘iston chempionatida faxrli ikkinchi o‘rinni olgan.

Suhbat jarayonida mashg‘ulotlardan bo‘sh paytlarida sport bilan shug‘ullanadigan oddiy askar Ashirbekovning o‘ziga hos jihatlari va kitob mutolaasiga bo‘lgan qiziqishidan boxabar bo‘ldik. U haqda safdosh do‘sti Suhrob Boboqulov shunday deydi:

– Ernazar nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda faol va tirishqoq bo‘lgan a’lochi do‘stlarimdan biri. U posbonlar orasida jamoatchi va jonkuyarligi bilan ajralib turadi. Uning menga yoqadigan jihati sinovlarda hech qachon ortga chekinmaydi, maqsadiga erishish yo‘lida hamma qiyinchilikka chidaydi. Shuningdek, kitob mutolaasiga qiziqadi. O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” va jahon adabiyotidan Daniyel Defoning bir qator asarlarini yaxshi ko‘rib o‘qiydi. Do‘stim Ernazarning yuksak orzulari bor. Xizmat davomida maqsadga aylangan bu ezgu niyatiga albatta erishadi, deb ishonaman.

Darhaqiqat, armiya maktabi muddatli harbiy xizmat o‘tayotgan yigitlarni nafaqat Vatan himoyachisi bo‘lishdek sharafli vazifaga qodir etadi, balki kelajagi bilan bog‘liq orzularga erishish yo‘lida o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi ham. Ernazarning ta’kidlashicha, amakisi tergovchi bo‘lgan. Uning harbiy libosi va ko‘krak nishonlariga havas qilgan. Yigitlik burchini o‘tashga qiziqtirgan ushbu havas uning ko‘nglida muddatli harbiy xizmatni kontrakt asosida davom ettirishdek ezgu maqsadga zamin yaratdi, desak, arziydi. Ayni damda muddatli harbiy xizmatni a’lochilar safida o‘tayotgan oddiy askar Ernazar Ashirbekov maqsadi yo‘lida dadil intilayotgan g‘ayratli posbonlardan.

SAFDOSHLARI DOIM MINNATDOR



– Ro‘zibek, yoshligingdan yengil atletika bilan shug‘ullangan ekansan, shundaymi?

– Ha, o‘n yoshimdan yengil atletikaga borganman, – safdosh do‘sti Rustamning savoliga javob qaytardi oddiy askar Sulaymonov.

– Ro‘zibek nafaqat shug‘ullangan, O‘zbekiston chempionatida 2-o‘rinni qo‘lga kiritgan ham, – suhbatga qo‘shildi yana bir safdoshi Samandar. – U yengil atletikada 2-razryadga ega.

– Shuning uchun amaliy mashg‘ulotlarda faol ekansan-da. Jismonan chiniqqanliging bilinadi. Yengil atletika harakatlarini bizga ham o‘rgat.

– Rustam to‘g‘ri aytyapti, men ham yengil atletikaga qiziqaman, o‘rgatsang xursand bo‘lardim, – uning fikrini tasdiqladi Samandar.

– Istasalaring, mashg‘ulotlardan bo‘sh paytlari, albatta o‘rgataman, – safdoshlarining iltimosini mamnuniyat bilan qabul qildi oddiy askar Ro‘zibek Sulaymonov.

Armiya maktabida birodarlikning o‘rni muhim. Xizmat sinovlarida bir-birlariga yaqindan yordam beradi, tayanch bo‘ladi. Bu borada Ro‘zibekdan safdoshlari doim minnatdor.

– Oilada uch o‘g‘ilmiz, men o‘rtancha farzandman, – deydi Ro‘zibek, suhbat chog‘ida. – Ota-onamiz yoshligimizdan bir-birimizga, yaqinlarimiz va do‘stlarimizga mehr-oqibatli va ahil-inoq bo‘lish borasida ko‘p saboq berishgan. Bergan tarbiya va o‘gitlari harbiy xizmatda ham asqatdi, sadoqatli do‘stlar orttirdim. Askarlik hayoti haqida to‘xtaladigan bo‘lsam, avvalo komandirlarimdan minnatdorman. Chunki armiya maktabida har qanday yigit chiniqadi, toblanadi, o‘ziga hos tarbiyaga ega bo‘ladi. Avvalo, ota-onasining qadriga yetadi, Vatanga bo‘lgan muhabbatni chuqur his qiladi. Negaki tug‘ilib o‘sgan ona zaminini, xalqini sevgan posbongina yurtini chin dildan himoya qila oladi. Komandirlarimiz bizga harbiy mashg‘ulotlardan saboq berish bilan birga, ona yurtga bo‘lgan muhabbat qay darajada ulug‘vor va jasoratli ishlarga qodir etishini singdirib bormoqda. Balki shu sabab safdoshlarimning ko‘plari kelajagini harbiy soha bilan bog‘lashga qaror qilgan. Men ham mana shular safida ekanimdan xursandman. Ota-onam maqsadimni qo‘llab-quvvatlashdi, ruhan tayanch bo‘ldi. Vatan himoyachisi bo‘lishdek sharafli vazifaga erishish uchun bor bilim va imkoniyatimni ishga solaman.

JANGOVAR MASHG‘ULOTLAR A’LOCHISI



Dala o‘quv maydonidagi amaliy mashg‘ulotlar yakunlandi. Askarlar yengil tin oldi, yakuniy natijalar yomon emas. Chunki posbonlar oldingi safda bo‘lish uchun astoydil harakat qildi. Nazariy mashg‘ulotlarda egallagan bilimlarini amalda yuzaga chiqarishga intilishdi. Vzvod komandiri mayor Bahodir Xoliyarov mashg‘ulotda yetakchi bo‘lgan askarlarga alohida minnatdorlik bildirdi.

– Vzvod komandiri o‘q otish mashg‘ulotida yuqori natijaga erishganimni aytganida g‘ururlanib ketdim, – deydi muddatli harbiy xizmatchi oddiy askar Hayotbek Xidiraliyev. – Safdoshlarimning barchasi mashg‘ulotlarda yaxshi ishtirok etadi, ortda qolmaslikka intiladi. Askarlik burchining ilk ko‘nikmalarini o‘zlashtirishda qiynalgan yigitlar bugun o‘ziga bo‘lgan ishonchi yuksak a’lochi posbonlarga aylangan. Ularning orasida yetakchi bo‘lish oson emas. Buning uchun komandirlarim va oddiy askarlar – Bahodir Abdumajidov, Diyor O‘ralov, Elyor Sa’dullayev kabi safdosh do‘stlarimdan minnatdorman. Biz armiya maktabida katta harbiy jamoada o‘zini tutish, harbiycha muomala madaniyati, qat’iy tartibga rioya qilishni o‘rgandik, saboq oldik. Bu zahmatli va sharafli burch kelajak hayotimizda katta iz qoldirishga ishonaman. Vatan posboni ekanligimdan faxrlanaman.

Oddiy askar Hayotbek Xidiraliyev kabi posbonlarning yuragidagi faxr tuyg‘usi bejiz emas. Chunki O‘zbekiston atalmish bu aziz yurtda qanchadan qancha vatanparvar insonlar yashab o‘tgan. Vatan ozodligi, hurligi uchun jonini fido etgan. Shunday ekan, mardlar izini bosmoq o‘g‘lonlarimizga yarashadi. Shoirona so‘zlar bilan aytganda:

Dovrug‘i dostonlar o‘sgan bu elda,
Yurakka payvanddir ularning yodi.
Dovyurak ajdodlar belbog‘i belda,
Chunki siz ularning mard zurriyoti.

Zulfiya YUNUSOVA,
“Vatanparvar”

OIV INFEKSIYASI NIMA UCHUN XAVFLI?



Odamzod qanday bo‘lishidan qat’i nazar doimo hayotdan har tomonlama lazzat olib yashashga harakat qiladi. Lekin hayotning lazzatini totib yashash uchun inson ko‘p mehnat, harakat qilishiga to‘g‘ri keladi va bunda moddiy boylikning ham asosiy o‘rni bor. Halol va mashaqqatli mehnat orqasidan kelgan, peshona teri orqali topilgan moddiy boylikni inson ko‘z qorachig‘iday asrab, oila a’zolari, farzandlarining farovon turmush kechirishiga va kelajagi uchun sarflashga harakat qiladi. Lekin moddiy boylik osonlikcha, mashaqqatlarsiz topilsa-chi?

Muammo shundaki, peshona terisiz topilgan boylikni odamlar ko‘r-ko‘rona, behudaga sarflaydi. Bunga boyvachcha ota-onasining qanoti ostida pul muammosini bilmay, hayotning barcha lazzatlarini totib ko‘rishga ulgurgan, lekin bu yorug‘ dunyoda hayot kechirishning asl mazmuni nimada ekanini bilishga ulgurmagan ota-o‘g‘illar, erkatoy qizlar ko‘proq moyil bo‘ladi. Hayotning barcha ne’matlarini yoshligidayoq totib ko‘rgan bu yoshlar bora-bora hayotdan o‘zi uchun yangi lazzat qidira boshlaydi. Natijada, sog‘lom turmush tarziga yot bo‘lgan – tamaki chekish, spirtli ichimliklar ichish, giyohvand moddalarni qabul qilish va fohishalar xizmatidan foydalanish kabi illatlar bilan oshno bo‘ladi. Hozirgi kunga kelib, bu illatlarning ichida giyohvandlik, alkogolizm va betartib jinsiy aloqa yetakchi o‘rinni egallamoqda. Bu esa turli yuqumli kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘layotgani achinarli.

Bunday kasalliklar ichida yuqori ijtimoiy-tibbiy ahamiyatga ega bo‘lgan jinsiy yo‘l orqali yuqadigan kasalliklar va ularning asorati asosiy o‘rinni egallagan. Asoratlar erkak va ayollarning reproduktiv holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ularda bepushtlik yoki farzandlarining og‘ir tug‘ma kasalliklar bilan dunyoga kelishiga zamin yaratmoqda.

Bugungi kunda bunday kasalliklarning 20 dan ortig‘i to‘liq o‘rganilgan bo‘lib, ularning ichida jinsiy yo‘l bilan yuqishi mumkin bo‘lgan, dunyoviy muammolar ichida yetakchilik qilayotgan odam immunitet tanqisligi virusi (OIV) kasalligining borligi insonlarni xavotirga soladi.

OIV infeksiyasining insoniyat uchun xavfliligining eng asosiy sababi ushbu kasallikning asosiy nishoni har bir davlatning kelajagi, jismoniy va aqliy salohiyati, jamiyatning asosini tashkil etuvchi yoshlarni mahv etishdir. Afsuski, hayotiy tajribasi kam bo‘lgan yoshlarning OIV kasalligi haqida yetarli ma’lumotga ega emasligi ushbu kasallik bilan bog‘liq bo‘lgan og‘ir asoratlarga olib kelishi, dunyo, shu jumladan respublikamiz miqyosida kasallikning tez sur’atlarda tarqalishiga zamin yaratadi.

Shunday ekan, Qurolli Kuchlarimiz shaxsiy tarkibining asosiy qismini yoshlar tashkil etishi ham oldimizdagi mas’uliyatni yanada oshiradi.

OIV infeksiyasi haqida ma’lumot beradigan bo‘lsak, bu kasallikni chaqiruvchi virus odam organizmi himoya tizimini jarohatlaydi, natijada organizm turli xil kasallik qo‘zg‘atuvchilarga qarshi kurashish qobiliyatini yo‘qotib, ular oldida ojiz bo‘lib qoladi. Orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi (OITS) OIV infeksiyasi kasallikning so‘nggi bosqichi bo‘lib, bunda yemirilgan immunitet infeksiyalarga qarshi kurasha olmaydi va kasallik o‘lim bilan yakun topadi.

Kasallik o‘ta xavfli, yuqumli bo‘lib, uning manbai bemor va odam immunitet tanqisligi virusini tashib yuruvchilardir. Kasallikning tarqalishida virus tashib yuruvchilar bemorlarga nisbatan xavflidir. Chunki ular umumiy kasallikka chalinganlarning asosiy qismini tashkil qiladi. Ularda kasallikning o‘ziga xos belgilari mavjud bo‘lmagani uchun tashqi ko‘rinishidan go‘yoki sog‘lomga o‘xshaydi. Lekin ular kasallikning yashirin davridan tortib, barcha bosqichlarida *(laboratoriya tahlillarida aniqlanmaguncha)*, ya’ni umrining oxirigacha boshqa shaxslarga virusni yuqtirishi mumkin.

Kasallik parenteral, ya’ni qon orqali *(qon va qon mahsulotlari quyilganda, a’zo va to‘qimalar ko‘chirib o‘tkazilganda, teri va shilliq qavatlar butunligi buzilishi bilan kechadigan barcha tibbiy va notibbiy (kosmetik muolajalar pirsing, tatuaj, manikyur, pedikyur, soch-soqolni oldirish va boshqa)* muolajalarda, shaxsiy gigiyena vositalaridan umumiy foydalanganda, jinsiy va vertikal *(OIV infeksiyasini yuqtirib olgan onadan homilaga yoki chaqaloqqa tug‘uruq jarayonida va tug‘ilgandan so‘ng ona suti orqali)* yo‘llar bilan yuqishi mumkin.

Virus organizmdagi qon, ona suti, jinsiy a’zolar va orqa miya suyuqliklarida yuqori miqdorda bo‘ladi. Yuqoridagi biologik suyuqliklar bilan muloqotda bo‘lgan sog‘lom shaxslar OIV infeksiyasini yuqtirib olish xavfi ostida qoladi.

OIV odam organizmiga tushgandan so‘ng dastlab tana haroratining oshishi, ich ketishi va tana vaznining pasayishi kuzatiladi. Kasallikka xos alohida belgilar kasallikning oxirgi bosqichlarida, ya’ni OIVni yuqtirib olgandan *(5-10 yildan)* so‘ng paydo bo‘la boshlaydi. Ushbu davr mobaynida bemor o‘zida OIV infeksiyasi mavjudligini bilmasdan turib, umumiy sartaroshxonalar, manikyur, pedikyur va boshqa jamoat muassasalariga murojaat qilib, atrofdagilar uchun xavf tug‘diradi.

Kasallik quyidagi hollarda yuqmaydi:

– jarohatlanmagan teri orqali;

– bitta idishdan ovqat yeyilganda;

– qo‘l berib ko‘rishganda, quchoqlashganda;

– suv havzalari va hojatxonadan foydalanilganda;

– qon so‘ruvchi hasharotlar *(chivin, bit, kana va boshqa)* chaqqanda;

– havo orqali muloqot paytida.

OIV infeksiyasi yuqishining oldini olish uchun, eng avvalo, shaxsiy tarkib orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, tartibsiz va himoyalanmagan jinsiy aloqadan saqlanish, tibbiy muolaja olayotganda tibbiy anjomlarning zararsizlantirilganligiga ishonch hosil qilish, maishiy xizmatdan foydalanayotganda *(soch, soqol oldirayotganda, manikyur, pedikyur, tatuaj)* asboblarning gigiyenik tozaligiga e’tibor qaratish muhim hisoblanadi.

Hozirgi kundagi epidemiologik vaziyatni hisobga olib, Toshkent shahri va Toshkent viloyati hududida joylashgan harbiy qism va muassasalar shaxsiy tarkibi bepul OIV infeksiyasini aniqlash bo‘yicha laboratoriya tekshiruvidan o‘tkazilmoqda. Zotan, bunday tadbirda faol ishtirok etgan harbiy xizmatchi shu orqali oila a’zolari va yaqinlarini OIV infeksiyasidan asragan bo‘ladi.

Tibbiy xizmat mayori
N. OMONOV,
Mudofaa vazirligi Sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi bo‘linma boshlig‘i

AYOL QALBIDAGI O‘T

Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta’minlash, ularning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish, munosib mehnat sharoitlarini yaratish va har jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur yo‘nalishdagi tub islohotlar zamirida xotin-qizlarimizning salohiyatini yuzaga chiqarish, opa-singillarimizning Yangi O‘zbekistonda baxtli hayot kechirishini ta’minlashdek ezgu g‘oya mujassam. Ayollarning jamiyat va davlat xizmatlaridagi ishtiroki kundan kunga ortib borayotgan bir paytda, ular Qurolli Kuchlarimiz saflarida ham mardonavor xizmat qilib, katta muvaffaqiyatlarga erishmoqda.

Xususan, Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlarida ham ayol harbiy xizmatchi va ishchi-xizmatchilar, shuningdek harbiy xizmatchilarning oila a’zolarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, harbiy jamoalar va oilalardagi axloqiy-ruhiy muhitni yanada mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan tizimli ishlar va erishilayotgan natijalar samarasi o‘laroq, bugungi kunda ayol harbiy xizmatchilarning bir guruhi “Sodiq xizmatlari uchun” va “Shuhrat” medallari, “To‘maris” hamda “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishonlari bilan taqdirlangan.

Toshkent viloyatining Bekobod shahridagi harbiy qismda xizmat faoliyatini olib borayotgan kichik serjant Sevara Shermatova ham o‘zining yuksak salohiyati, iqtidori-yu, tashabbuskorligi bilan safdoshlariga o‘rnak bo‘lib kelayotgan harbiy xizmatchilardan biri. Uning joriy yilda “Yil ayoli” ko‘rik-tanlovining “Gender tenglik faoli” shiori ostida o‘tkazilgan Bekobod shahar bosqichida munosib ishtirok etib, “Vatanparvarlik” yo‘nalishida g‘oliblikni qo‘lga kiritishi so‘zimizning yorqin dalilidir.



Uchta shartdan iborat bo‘lgan mazkur tanlovning birinchi “O‘zini tanishtirish” shartida ishtirokchilar uch daqiqa davomida faoliyati, oilasi, jamiyatda tutgan o‘rni, faolligi haqida so‘zlab, taqdimotlarini namoyish etdi. Ushbu jarayonda ularning o‘zi haqidagi ma’lumotlarni tasvirlash qobiliyati, tashqi ko‘rinishi, libosi, ma’naviyati, milliylik va zamonaviylikni uyg‘unlashtirgan ayol qiyofasini gavdalantira olish mahoratiga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi, “Savol va javob” shartida tanlov qatnashchilarining mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, ayniqsa oila, xotin-qizlarni yanada qo‘llab-quvvatlash, ularning davlat va jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashga oid savollarga bergan javoblari baholandi.

“Zamonaviy o‘zbek ayoli” shartida esa rang-barang, o‘ziga xos kreativ yondashuvlar asosida tayyorlangan videoroliklar orqali, ishtirokchilarning kundalik faoliyat jarayonlari namoyish etildi.

Yakuniy natijalarga ko‘ra, barcha shartlardan muvaffaqiyatli o‘tgan qatnashchilar g‘oliblikni qo‘lga kiritdi.

– Qator vazirlik va idoralar hamkorligida tashkil etilgan ushbu milliy tanlov yuqori saviyada bo‘lib o‘tdi. Ishtirokim davomida harbiy ayollarning zimmasidagi katta mas’uliyatni, ayniqsa ularning o‘sib kelayotgan yosh avlodni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda tutgan o‘rnini namoyon etib berishga harakat qildim va “Vatanparvarlik” yo‘nalishida birinchi o‘rinni egalladim. Albatta, bunday natijaga erishishimda turmush o‘rtog‘imning hissasi katta. Chunki ularning o‘zlari ham harbiy xizmatchi va meni har jihatdan qo‘llab-quvvatlaganlari sabab, oilaga, xizmat faoliyatiga va mana shunday tanlovlarda ishtirok etishga imkon topa olyapman, – deydi kichik serjant Sevara Shermatova.

Ta’kidlash joizki, o‘tkazilayotgan bu kabi tadbirlar yurtimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shib, o‘zi faoliyat yo‘nalishida g‘oliblikni qo‘lga kiritishi so‘zimizning yorqin dalilidir.







ko‘rsatayotgan tizim nufuzini yanada ko‘tarishda jonbozlik ko‘rsatib kelayotgan, yuksak ma’naviyatli, oila va farzand tarbiyasida ibrat bo‘la oladigan xotin-qizlarimizni yuzaga chiqarib, ularni jamoatchilikka yaqindan tanishtirish, ilg‘or ish tajribalarini ommalashtirish, professional salohiyati va ishbilarmonlik sifatlari, shuningdek ilm-u ma’rifatini yanada oshirishga xizmat qilishi bilan qimmatli sanaladi.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo‘shinlari

Savol bering, javob beramiz

HUQUQIY MASLAHAT



Savol: Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o‘rnatgan iste’molchilarga xarid xarajatlari qanchadir miqdorda qoplab beriladi, deb eshitdim. Shu haqda ma’lumot bersangiz.

Javob: Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarining qiymatini to‘liq to‘lagan holda ularni xarid qilgan va o‘rnatgan iste’molchilarga xarid xarajatlarining bir qismi quyidagi miqdorlarda Tarmoqlararo energiyani tejash jamg‘armasi hisobidan kompensatsiya qilinadi:

Quyosh yoki shamol elektr stansiyasini o‘rnatganlik uchun kompensatsiyalar miqdori o‘rnatilgan quvvati:

• 0,5 kVtdan 1 kVtgacha bo‘lganda, bazaviy hisoblash miqdorining *(BHM)* 7 barobari;

• 1 kVtdan 1,5 kVtgacha bo‘lganda, BHMning 10 barobari;

• 1,5 kVtdan 2 kVtgacha bo‘lganda, BHMning 15 barobari;

• 2 kVt va undan yuqori bo‘lganda, BHMning 20 barobari;

• 5 kVt va undan yuqori bo‘lganda, BHMning 50 barobari miqdorida *(faqatgina yangi yerlar o‘zlashtirilganda va tik quduqlarda o‘rnatilgan suv nasoslarining elektr energiyasi iste’moli qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari orqali ta’minlanganda).*

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi axborot xizmati

jarayon

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o‘rinbosari – O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasida va Xorazm viloyatida o‘rganishlar olib borildi.

O‘RGANISHLAR DAVOM ETMOQDA

Mutasaddilar ishtirokida amaliy seminarlar o‘tkazilib, qish mavsumini betalafot o‘tkazish va iste’molchilarni yoqilg‘i-energiya resurslari bilan uzluksiz ta’minlash masalalari hamda bu boradagi ishchi guruhlar faoliyati natijalari tahlil qilindi. Jarayonda energiya resurslarini iqtisod qilish bo‘yicha belgilangan tadbirlarni bajarish borasidagi ishlar, ijtimoiy soha obyektlari, tadbirkorlik subyektlari va aholi yashash xonadonlariga muqobil energiya manbalari o‘rnatishning afzalliklari hamda imtiyozlari haqida malakali mutaxassislar tomonidan batafsil tushuntirishlar berib o‘tildi.

Shuningdek, o‘rganilgan hududlarda ijtimoiy soha obyektlari, boshqaruv servis kompaniyalari vakillari, mahalla raislari va faollari, yirik ishlab chiqaruvchilar va fuqarolar ishtirokida energotejamkor uskunalar ko‘rgazmasi tashkil etildi.

O‘rganishlar davomida idoralar va ta’minotchi korxonalarning qish mavsumiga shayligi darajasi yana bir bor ko‘zdan kechirilib, mas’ullarga tegishli topshiriqlar va ko‘rsatmalar berildi.

Adliya podpolkovnigi Botir SOBIROV,
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining katta yordamchisi

Ogohlik

Ma’lumki, qish mavsumida aholi orasida issiqlikka bo‘lgan ehtiyoj va talab yanada ortadi. Buning natijasida esa nostandart isitish pechlaridan noto‘g‘ri foydalanish holatlari uchraydi. Bunday holatlar salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi va is gazidan zaharlanishga sabab bo‘lishi mumkin.



TILSIZ YOVDAN EHTIYOT BO‘LING!

Respublikamizda 15-noyabrdan 15-dekabrga qadar “Yong‘in xavfsizligi oyligi” o‘tkazilmoqda.

Mazkur oylikda xalq xo‘jaligi maskanlari va aholi turarjoylarini yong‘in xavfsizligi talablariga mos holga keltirish, korxona, muassasa va tashkilotlar rahbarlarini hamda fuqarolarni yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya etish borasidagi mas’uliyatini oshirish, sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan ko‘ngilsiz holatlar va yong‘inlarning oldini olish maqsadida aholi o‘rtasida keng qamrovli targ‘ibot-tashviqot va tushuntirish ishlarini olib borish eng asosiy vazifa etib belgilangan.

Olov – inson ehtiyojlari uchun xizmat qiladi. U uy-ro‘zg‘orni isitib, taomlarni pishiradi, umuman olganda, insonning talablari uchun zarur vosita. Biroq olovdan nihoyatda ehtiyotkorlik bilan foydalanish zarur. Ozgina ehtiyotsizlik ko‘plab noxushliklarga sabab bo‘lishi, moddiy boylik va mulklarning kulga aylanishi, eng xavflisi – inson hayotini xatarga qo‘yishi mumkin.

“Yong‘in xavfsizligi oyligi”da mazkur hodisalarning oldini olish maqsadida elektr-gaz uskunalaridan hamda isitish moslamalaridan foydalanishda quyidagilarga qattiq rioya qiling:

isitish mavsumi boshlanishidan oldin pechlar, qozonlar, issiqlik hosil qiluvchi elektr-gaz uskunalar hamda boshqa isitish anjomlari va tizimlari tekshirilgan va ta’mirlangan bo‘lishi kerak;

nosoz isitish pechlari, qozonxona jihozlari, issiqlik hosil qiluvchi qurilmalar va boshqa isitish anjomlaridan foydalanish taqiqlanadi!

Harbiy xizmatchilar va ishchi xizmatchilarga maslahatimiz – xizmat joyida va yashash xonadonlarida yong‘in xavfsizligi qoidalariga amal qilsangiz, davlat va o‘z shaxsiy mulkingizni, uy-joyingizni yong‘indan asrash barobarida yaqinlaringiz va farzandlaringiz xavfsizligini ta’minlagan bo‘lasiz.

Mayor Ahmad ORIPOV,
Toshkent garnizoni yong‘in nazorati inspeksiyasi boshlig‘i

MAQSADIMIZ — HECH KIM JABR KO‘RMASIN



Termiz davlat universitetida 2024/2025 o‘quv yilining kuz-qish mavsumini betalafot o‘tkazish maqsadida viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi xodimlari, universitet mutasaddi rahbarlari ishtirokida targ‘ibot tadbiri o‘tkazildi.

Tadbirda Surxondaryo viloyati favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari X. Rustamov hamda soha mutaxassislari tomonidan talaba-yoshlarga tabiiy gazdan va elektr uskunalaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga qat’iy rioya qilish bo‘yicha keng tushunchalar berildi. Mutaxassislar tomonidan maxsus yong‘in-qutqaruv avtomobili va yong‘in-qutqaruv texnikalari yordamida otkazilgan amaliy mashg‘ulotlar talabalarda mavzu bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirdi. Shuningdek, tadbir



davomida ijarada va ko‘p qavatli uylarda istiqomat qilayotgan talaba-yoshlarga yong‘in va is gazidan zaharlanish kabi holatlarning oldini olish va tabiiy gazdan to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha ham ko‘rsatmalar berib o‘tdi.

Jamshid NAZAROV,
Termiz davlat universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti tyutori



SAMARQAND XAYOLI

(hikoya)

“Men ham bir qo‘rg‘onday ketgum qorishib”.

Sirojiddin SAYYID

Muhabbat qandaydir yengil harakatlardan uyg‘onib ketdi. Eshik ochilib-yopilgandek bo‘ldi. Millari ajib nurlanib turadigan devor soatiga qaradi, tungi ikki. Hech qancha uxlamabdi. Keyingi paytlarda dorilar ham ta’sir qilmay qo‘ydi. Yotgan joyida deraza oynasidan tashqariga boqdi. Tunlari ham charog‘on bir shahar. Kunduzi shoxdan shoxga yugurgilab yurgan olmaxonlar ko‘zni quvontiradi. Tip-tiniq yashillik dilni yayratadi. Biroz salqin, yomg‘irli. Samarqandda havolar qanday ekan? O‘riklarning ham oldi pishdiyov? Sariq giloslar allaqachon tugab ham ketgandir. Hovlimdagi gullar bu vaqtlari barq urib ochilardi. Erim rayhon ekdimikan? Ayol o‘rnidan xiyol ko‘tarilib, sog‘inch bilan derazani qiya ochdi. Salqin va toza havo akatsiya daraxtlarining xush ifori bilan yopirilib kirdi. Qanchalar xush ifor, ammo rayhon hidiga teng kelarmidi. Nam havo zaif vujudini titratdi. Astagina derazani yopdi. Ko‘zlarining chekkasidan oqqan yoshni cho‘pdek barmoqlari bilan sidirdi. “Samarqandim, jonim kentim, quyoshligim, yana seni ko‘ra olarmikanman, rayhon hidlarini tuyarmikanman?” deb pichirladi-yu, ko‘zyoshlarini to‘xtata olmay entikdi. Yig‘i sasini bolalari eshitmasligi uchun yuzini yostiqqa bosdi. Havo yetishmayotgandek bo‘ldi. O‘rnidan turib, bir-bir bosib, yuvinish xonasiga yo‘naldi. O‘g‘illarini uyg‘otib yubormaslik uchun eshikni avaylab ochdi.

Koridorga o‘g‘illari yotgan xonadan bir qatim nur tushib turardi. Chiroqni o‘chirishni unutib uxlab qolishibdi, deb o‘yladi ayol va sassiz yurib, eshik tutqichiga qo‘l uzatdi. Shu payt ichkaridan o‘g‘lining dardli, bo‘g‘iq ovozi eshitilib, turgan joyida qotib qoldi. Eshikning qiya ochiq joyidan qaradi. Egizaklari joynamoz ustida qo‘llarini ko‘kka cho‘zib, ko‘zyoshlari yuzlarini yuvib, onalarining tuzalib ketishini tilardi.

Muhabbat ortiga qaytdi. Og‘ir ish qilgandek horigan edi. Hayotiga o‘lim soya solayotganini shu tun angladi. Tushlaridan his qildi. Bolaligida ortidan quvgani oppoq bulutlar qo‘l uzatsa yetgudek yaqinlashgan, qushlar nag‘masi eshitilar, oppoq chechaklar to‘la huzurli bir ma’vo chorlar, egizaklarni unutganicha, shu tomonga talpinardi... Darvoqe, egizaklar. Ular endi ulg‘ayib qoldi. Moskvaga ham ikkisini qiyolmay keldi. U allaqachon taqdirga tan bergan faqat bir narsadan xavotirda. Unga bir narsa bo‘lsa, bolalari o‘zlarini ayblab, armon qilib qolishsa-ya. “Ayam Moskvaga kelishni istamagan edi, uni majbur olib keldik, o‘limiga sababchi bo‘ldik, deb o‘rtanib qolishmasmikan?!” Yo‘q, ularning armonda qolishlarini istamaydi. Bugun tongdayoq shifokor bilan gaplashaman. Nima bo‘lsa ham uyga, Samarqandga ketaman. Yetar, bolalarim ham qiynalib ketdi. Begona shaharda qish, bahor kechdi, o‘zgarish yo‘q, charchayapman. Bolalarim jonsiz boshim bilan begona elda sarson bo‘lmasin. Bunday yuk ularga juda og‘irlik qiladi... Qani edi, qanotim bo‘lsa-yu, uchib borsam, uchiblar borsam... Ayol yig‘idan entikdi. Shu alfozda uzoq o‘tirdi.

Tong oqara boshladi. U chuvalgan o‘ylariga ortiq erk bermay, ko‘zyoshlarini artdi. Biroz tetiklanish uchun ming mashaqqat bilan yuvinib-tarandi. Arang to‘shagiga yetib keldi. Javondagi kiyimlariga qaradi. Hammasi halpillab, keng bo‘lib qolibdi. Yaqinda o‘g‘li olib bergan ko‘ylakni tanladi. Samarqandning hidi keladigan nimchasini kiydi. Egnidan qo‘ymay kiyganiga bolalari hayron bo‘lsa, shunday derdi: “Bunda Samarqandning hidi bor”. Uni Urgut bozoridan eri olib bergan edi. O‘shanda torroq tuyulgan edi. Kengayib qolibdi.

O‘g‘illari nonushta olib kirganida uni ko‘rib, hang-mang bo‘lib qoldilar. Boshida guldor ro‘mol, yuziga nafisgina upa-elik surilgan ona ularga avvalgi sog‘-salomat, o‘ynab-kulib yurgan kunlarini eslatib yubordi. Ikkovlari ham qo‘llaridagi patnislarni duch kelgan joyga qo‘yib, onalarini quchoqlab oldilar.

– Ayajon, bugun bir boshqacha chiroyli bo‘lib ketibsiz, – dedi Hasan onasining yuzlarini silab.

– Mening ayam har doim go‘zal bo‘lganlar, chunki o‘zimning ayam-da, – dedi Husan onasining yuzidan avaylab o‘pib qo‘yar ekan.

– Ha, ha, sening ayang, men o‘gay-ku! – hazillashdi akasi.

Muhabbat qo‘llari yetganicha ikkisini bir muddat bag‘riga bosib turdi. So‘ng egizlarning kattasiga yuzlandi:

– Xalqaro aeroportda ishlaydigan Dilafruz xolangga qo‘ng‘iroq qil. Ayam uyga qaytar ekanlar, degin. Bugunoq!

– Hali muolajalaringiz tugamadi-ku? – deya onalariga hayron boqdi aka-uka.

– Doktor bilan gaplashaman, charchadim, – dedi Hasanning yelkasiga boshini qo‘yib, Husanning qo‘lidan tutib, birpas tin oldi. – Ikkovingizga ham rahmat, injiqligimga chidab kelyapsiz. Har kech Samarqand tushlarimga kiradi, men uning oshig‘iman, undan hech bu qadar ko‘o‘p uzoqlashmagan edim. Xuddi jonim o‘sha shaharda qolgandek tuyuladi. Qattiq sog‘indim... minoralar olislardan ham ko‘rinar edi, bahorda bog‘lar tomondan biram xush iforlar kelardi, ayniqsa oqshomlari.

Ayol jimib qoldi. U bolasining bezovta gursullayotgan yurak sasini eshitdi. Boshini ko‘tarib, ko‘zlariga qarab, jilmaydi va dedi:

– Hammasi yaxshi bo‘ladi, tashvishlanma, bugun uyga ketamiz, tezroq xolangga qo‘ng‘iroq qil, ketaylik shu yerlardan.

***

Muhabbat uzoq yo‘lda horidi. Ko‘zlarini yumib oldi. Oradan bir soatcha vaqt o‘tib, Hasan uning qo‘lini kaftiga olib, siladi, onasining yuziga yuzini yaqin keltirib, engashdi. Ona horg‘inlik bilan ko‘zlarini ochdi. Yigit sevinch bilan shunday dedi:

– Ayajon, Samarqand osmonidamiz! Hademay samolyot qo‘nadi.

Ayol boladek quvondi. Illyuminatordan pastga qaradi. Keyin ko‘zlarini ko‘tarib, noma’lum yoqqa qaradi. O‘sha-o‘sha sevinchli tabassumda pichirladi:

– Yerda ham, hatto ko‘kda ham Samarqand, judalar muazzam, oltin peshtoqlari yal-yal yonishini qara, Hasanjon, minoralar, moviy gumbazlar, gullagan bog‘lar, bolari g‘uvullashi ham eshitilyapti... Ana, ota hovlimiz, uyim, rayhonlar... So‘ng “oh” chekkandek bo‘ldi-yu, jimib qoldi. Ko‘zlari ochiq, lablarida nim tabassum...

Hasan o‘kirib yubormaslik uchun onasining qo‘liga lablarini bosdi, harorat tark etayotgan ko‘ksiga boshini qo‘ydi. Ukasining baquvvat qo‘llarini his qilganida yelkalari bir lahza silkinishdan to‘xtadi. Husanga yosh to‘la ko‘zlari bilan “Qo‘limdan hech narsa kelmadi...” degandek boqdi.

So‘ng nafasiga qadar yerda ham Samarqand, ko‘kda ham Samarqand deya sevingan ko‘hna shaharning xasta oshig‘i o‘zi ham endi Samarqandga aylangan edi.

Inobat NODIRSHOH

Sayyor qabul

MUROJAATLAR ATROFLICHA O‘RGANILDI



Bugun yurtimizda davlat idoralari faoliyatida aholining murojaatlari bilan ishlash bo‘yicha sifat jihatidan mutlaqo yangi tizim yaratildi. Joylarda o‘tayotgan sayyor qabullar xalqning dardini eshitish, ularning muammolarini hal etishda, shak-shubhasiz, kutilgan natijani bermoqda. Bu borada Mudofaa vazirligi tizimida ham samarali ishlar yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bundan maqsad harbiy xizmatchilarning oilaviy sharoitini yanada yaxshilash, ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashdir.

Angren shahrida joylashgan harbiy qismda harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari ishtirokida o‘tkazilgan sayyor qabul ham fuqarolar uchun shunday manfaatli bo‘ldi.

Unda Toshkent harbiy okrugi qo‘mondoni polkovnik Zokirjon Sayfudinov, hududiy hokimlik, davlat va jamoat tashkiloti mas’ullari ishtirok etdi.

Tadbirning rasmiy qismida polkovnik Zokirjon Sayfudinov so‘zga chiqib, bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar haqida fikr bildirib, harbiy xizmatchilar hamda ularning oila a’zolari uchun har tomonlama keng imkoniyatlar yaratilayotgani borasida atroflicha fikr yuritdi.

Sayyor qabul davomida har bir murojaatchi bilan yakka tartibda suhbat olib borildi. Suhbat davomida tibbiy xizmat, nafaqadagi harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi, xizmat joyini ko‘chirish hamda uy-joy masalalari ko‘rib chiqildi. Umuman olganda, shu kuni qabul jarayonida jami 150 dan ortiq murojaat tinglanib, shundan 60 dan ortig‘i shu joyning o‘zidayoq ijobiy hal etildi. Yechimi vaqt talab qiladigan murojaatlar esa mutasaddilarga yo‘naltirilib, ijrosi nazoratga olindi.

Leytenant Behzod OBLOQULOV
Toshkent harbiy okrugi matbuot xizmati

Uch avlod uchrashuvi

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda milliy g‘urur hissini shakllantirish maqsadida mudofaa ishlari boshqarmasi huzuridagi chaqiriluvchilarni harbiy-texnik mutaxassisliklari bo‘yicha tayyorlash markazi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Jizzax viloyati kengashi bilan hamkorlikda Jizzax shahridagi Sharof Rashidov uy muzeyida “Uch avlod uchrashuvi” tashkillashtirildi.

SHAROF RASHIDOV UY MUZEYIDA



Unda ishtirok etgan yoshi ulug‘ faxriylar hayoti va mehnat faoliyati davomida to‘plagan boy tajribasini yoshlar bilan o‘rtoqlashdi. Yoshlik davridagi o‘ziga xos qiyinchiliklar, mehnat pallasidagi mashaqqatlarni yodga olish asnosida bugungi dorilamon kunlarda yurtimizda nuroniylarga ko‘rsatilayotgan hurmat-ehtirom haqida to‘lqinlanib so‘zladi.

Shu kuni muzeyda mehmon bo‘lganlar atoqli davlat arbobi, yozuvchi Sharof Rashidov shaxsiyati, hayoti va ijodi, bosib o‘tgan yo‘lini ham xotirladilar.

Muzey xodimlari Sharof Rashidovning amalga oshirgan bunyodkorlik faoliyati haqida so‘zlab berdi. Shu kuni mehmonlar mazkur muzey va u yerda namoyishga qo‘yilgan eksponatlar haqida ham batafsil ma’lumotga ega bo‘ldi.

Parvina ABDUHAMIDOVA
Markaziy harbiy okrug matbuot xizmati bosh mutaxassisi

Ekskursiya

“SAHRODAGI LUVR”GA TASHRIF

“Keksalar turizm oyligi” munosabati bilan qoraqalpog‘istonlik bir guruh faxriylar yurtimizdagi yirik muzeylardan biri, “Sahrodagi luvr” nomi bilan mashhur bo‘lgan I. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston davlat san’at muzeyiga sayohat qildi.



Muzeyda faxriylar tasviriy san’atning grafika, rangtasvir va haykaltaroshlik asarlari hamda qoraqalpoq milliy hunarmandchilik namunalari bilan yaqindan tanishdi. Ekskursiya qiziqarli, mazmunli va taassurotlarga boy o‘tdi.

Ma’lumot o‘rnida aytib o‘tish lozim, XX asrning eng noyob durdonalarini o‘zida saqlayotgan muzey fondida 85 mingdan ortiq eksponat saqlanadi. So‘nggi yillarda muzeyga tashrif buyurayotgan tomoshabinlar safi kengayib borayotganligi alohida e’tirofga loyiq. Ular orasida nuroniy otaxon-u onaxonlarning borligi esa yanada quvonarli. Faxriylar yurtimizda yoshi ulug‘ insonlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlardan mamnun ekanliklarini bildirib o‘tisharkan, bu kabi sayohatlar ularga juda manzur bo‘layotganini alohida ta’kidladi.

Ma’lumki, yurtimizda 100 dan ortiq muzeylar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, birgina Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahrida Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston davlat san’at muzeyi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyi, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti muzeyi, uy muzeylari hamda Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug tarixi muzeyi tomoshabinlarga xizmat ko‘rsatib kelmoqda.

Shu kungi sayohat Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrida davom etdi.



TARIX BILAN YUZMA-YUZ

Qatag‘on qurbonlari va jadidlarning xotirasini abadiylashtirish, ularning merosini chuqur o‘rganish va keng omma o‘rtasida targ‘ib etish maqsadida Nukus garnizonidagi harbiy qismning bir guruh muddatli harbiy xizmatchilari uchun Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti tuzilmasida faoliyat yuritayotgan “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyiga sayohat uyushtirildi.

“Tarixiy xotira, ma’naviy va ruhiy tarbiya – Yangi O‘zbekiston poydevori” shiori ostida tashkil etilgan ekskursiya davomida askarlar qoraqalpog‘istonlik jadidlar va qatag‘onga uchragan taniqli davlat arboblari, fan va madaniyat namoyandalari, maorif, yozuvchi va shoirlarning adabiy merosi bilan yaqindan tanishdi. Ekskursiya askarlarga tarixning bir sahifasini ochdi. Tadbir mazmunli va ma’lumotlarga boy o‘tdi.

Muzey fondida hozirgi kungacha 2 690 dan ziyod hujjat, eksponatlar va boshqa materiallar tomoshabinlar diqqatiga havola etilgan bo‘lib, bo‘limlarda ommaviy qatag‘onlar tufayli istiqlol uchun kurashlarda qurbon bo‘lgan, insoniylik sha’ni, qadr-qimmati toptalgan vatandoshlarimizning xotirasini abadiylashtirish, yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat tuyg‘ularini kuchaytirish g‘oyalari mujassamlangan.

Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

Mudofaaga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotlarida



TADBIRLAR SAMARADORLIGI OSHIRILMOQDA

Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti tashkil etilganining 33 yilligiga tayyorgarlik ko‘rish va uni ko‘tarinki ruhda o‘tkazish maqsadida tizim tashkilotlari tomonidan ko‘plab amaliy ishlar qilinmoqda. Xususan, bu borada tashkilotning Sirdaryo viloyati kengashi va uning joylardagi o‘quv sport-texnika klublari jamoasi ham bir qancha tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Yaqinda mana shunday tadbirlardan biri tashkilotning Yangiyer shahri o‘quv sport-texnika klubida “Vatanparvar” tashkiloti – mening tanlovim!” shiori ostida o‘tkazildi. Ushbu tadbirda shahardagi umumta’lim maktablari o‘quvchilari “Vatan tayanchi” otryadi a’zolari va mahalla yoshlari ishtirok etdi.


– Tadbirda mutaxassislarimiz tashkilot tarixi va ayni paytda harbiy-vatanparvarlik targ‘iboti, sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar xususida ishtirokchilarga so‘zlab berdi, – deydi “Vatanparvar” tashkiloti viloyat kengashi raisi Ulug‘bek Imomqulov. – Shuningdek, tashkilot tomonidan tayyorlanayotgan turli toifadagi avtomototransport vositalari haydovchilari, texnik kasb egalari va muvaffaqiyatli sportchilar mamlakatimiz nufuzi oshishida qo‘shgan ulkan hissalari to‘g‘risida misollar asosida ma’lumotlar berildi. Tadbir davomida “Vatanparvar” tashkilotiga a’zo bo‘lish istagini bildirgan yoshlarga a’zolik guvohnomalari topshirildi.

Mazkur tadbirda ishtirok etgan barcha yoshlarda “Havo miltig‘idan o‘q otish”, “Yozgi biatlon”, “Karting”, “Avtokross”, “Motokross”, “Duatlon”, “Triatlon”, “Aviamodel” kabi texnik va amaliy sport turlari bo‘yicha tashkil etilgan seksiyalarning ko‘rgazmalari katta taassurot qoldirdi. O‘z navbatida, tadbir qanashchilari sport texnikalari va anjomlaridan sportchilar hamda murabbiylar yordamida foydalanib ko‘rish imkoniyatiga ham ega bo‘ldi.

Tadbir davomida yoshlar o‘rtasida havo miltig‘idan o‘q otish va boshqa sport turlari bo‘yicha musobaqalar ham o‘tkazildi. Musobaqa g‘oliblari tadbir tashkilotchilari tomonidan diplom va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi. Bundan tashqari, ishtirokchilarga klubda texnik xizmat ko‘rsatish mutaxassislarini tayyorlashda qo‘llaniladigan zamonaviy texnik jihozlar namoyish etilib, ularning qo‘llash tartibi tushuntirildi.

Albatta, muhim sana munosabati bilan o‘tkazilayotgan bunday tadbirlar yoshlarimiz qalbida ona Vatanga muhabbat va sadoqat hissini, harbiy-vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantiradi. Chunki ularning ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishlariga ko‘maklashish tashkilotning muhim vazifalaridan biridir. Shuning uchun Sirdaryo viloyatida ham bu kabi barcha tashkil etilayotgan va o‘tkazilayotgan tadbirlar samaradorligini oshirishga, ayniqsa “Vatanparvar” tashkiloti tashkil etilganining 33 yilligi arafasida yana ham keng e’tibor qaratilmoqda.







Akbar ALLAMURODOV

BUYUK IXTIROLAR



Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun

Non qanday paydo bo‘lgan?



Bolajonlar, dunyoda eng ko‘p iste’mol qilinadigan mahsulotlardan biri nimaligini bilasizmi? Topdingiz, bu non! Xoh oddiy nonushta bo‘lsin, xoh shohona dasturxon uni nonsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Non dasturxonimiz ko‘rkidir. Har bir mamlakatda non va non mahsulotlari sevib iste’mol qilinadi. Xo‘sh, non qanday paydo bo‘lgan, bu savol sizga qiziqmi, unda yaqinroq keling!





Olimlarning izlanishlariga ko‘ra, Yer yuzida non taxminan 15 ming yil oldin paydo bo‘lgan. Birinchi achitqi yordamida tayyorlangan non esa taxminan 2600 – 3000 yil avval Qadimgi Misrda o‘ylab topilgan. Non pishirish pechini ham misrliklar o‘ylab topgan. Keyinchalik bu ixtironi greklar o‘rganib, unga turli yangiliklar kiritgan.

Dastlab odamlar donni pishirmasdan iste’mol qilgan, keyinchalik uni toshlar yordamida maydalaganlar. Bu mahsulot unning ilk ko‘rinishi edi. Hosil bo‘lgan massadan turli taomlar, asosan bo‘tqa tayyorlangan.

Aslida non tasodifan paydo bo‘lgan. Odamlar bo‘tqa pishirish jarayonida u toshib, toshlar ustiga oqib tushadi. Issiq tosh ustida hosil bo‘lgan kulchalarning mazasi tamomila o‘zgacha edi. Shundan so‘ng mahalliy aholi uni pishirib, non qilib iste’mol qilishni o‘rgandi. Asta-sekinlik bilan odamlar tegirmon toshi yordamida donni maydalab, hozirda bizga ma’lum Hindiston chapatisi singari yupqa nonlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishgan.

Qadimda oq nonni faqat yuqori tabaqali zodagonlar, qora va kulrang nonlarni esa kambag‘allar iste’mol qilgan. Javdar va donli nonlarning foydali tomonlari XX asrga kelib ma‘lum bo‘lgan.

Hozirda nonning 40 000 dan ortiq turi bor. 2006-yilda Novvoylar hamda novvoy-qandolatpazlar xalqaro uyushmasi tashabbusi bilan 16-oktabr – Butunjahon non kuni deb e’lon qilindi. Bu sana O‘zbekistonda rasmiy qayd etilmagan bo‘lsa-da, xalqimizda nonga bo‘lgan hurmat qadriyat darajasiga ko‘tarilgan. Obinon, qaymoqli non, jizzali non, sariyog‘li patir, piyozli non, zog‘ora non, sedanali non deysizmi har birining mazasi va hidi o‘zgacha. Bozor rastalaridan xohlagan turini izlab topishingiz mumkin.

DO‘STLIK SINOVDA CHINIQAR

(o‘zbek xalq ertagi)



Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir kuni barg bilan kesak do‘st bo‘lishibdi. Ular bir-biridan ajralmaslikka ahd qilishibdi va og‘ir kunlarda bir-birlariga yordam berishga va’dalashibdi.

Ular ahil yashay boshlabdilar.

Kunlardan bir kun qattiq shamol turibdi.

Shamolning g‘uvullashidan qo‘rqib ketgan barg kesakka nolish qilib yig‘labdi. Shunda kesak:

– Hech qo‘rqmagin, men seni bu balodan qutqaraman! – deb bargni pana qilib to‘sibdi.

Shamol qanchalik kuchli bo‘lmasin, bargni uchirib keta olmabdi. Bu ahvolni ko‘rgan shamolning achchig‘i kelib, yomg‘irni yuboribdi. Bu bilan u kesakdan o‘ch olmoqchi bo‘libdi. Lekin yomg‘ir ham bularni qo‘rqita olmabdi.

Yomg‘irning yog‘ishini ko‘rgan kesak bargga nolish qilibdi. O‘zini yomg‘irdan qutqarishini so‘rabdi. Shunda barg bir sakrab kesakni pana qila boshlabdi. Qanchalik ko‘p sel yog‘masin, kesakni qo‘rqita olmabdi. Yomg‘ir tingach, kesak bilan barg quchoqlashib ko‘rishibdi. Ular o‘zlarining mehr-oqibatlaridan xursand bo‘lib, yanada inoqlashib ketibdi.

Sahifani Sayyora MIRZAYEVA tayyorladi.

HECH QACHON SAROSIMAGA TUSHMA!

XVIII asr boshida yashagan yaponiyalik zodagon Yamanuti Edo *(Tokioning o‘sha paytdagi nomi)* shahri sayohatiga o‘zi bilan birga choy damlash marosimining ustasi bo‘lgan xizmatkorini ham birga olib keladi. U saroy a’yonlariga xizmatkori bilan maqtanishni maqsad qilgandi. U chindan choy damlash marosimining ustasi edi, ammo atrofdagi odamlar to‘g‘risida deyarli hech narsa bilmasdi. U juda yuvosh va beozor odam bo‘lsa-da, lekin jamiyatdagi viqorli martabasi *(choy damlash marosimi ustalari o‘sha davrda jamiyatda nihoyatda qadrli insonlar sirasiga kirgan)* tufayli samuray libosini kiyib yurardi.



Kunlarning birida shahar ko‘chalarida sayohatda yurgan ustaga jangari samuray xiralik qilib, uni o‘zaro jang qilishga chaqiradi. Usta jangchi emasligini, hatto qilich tutishni bilmasligini samurayga tushuntirishga harakat qiladi. Biroq o‘z kuchidan maqtanadigan, tegganga tegib, tegmaganga kesak otadiganlar tofasidan bo‘lgan samuray ustaning gapini eshitishni ham xohlamaydi. Jang qilishdan bosh tortish nafaqat o‘zini, shu bilan birga dongdor Yamanuti xonadonini ham sharmanda qilish bilan barobar edi. Halok bo‘lishi aniq bo‘lsa-da, jangga da’vatni qabul qilishi lozim edi. Usta faqat bir shart qo‘yadi: jangni ertaga surish kerak. Bu shartni samuray qabul qiladi.

Sarosimaga tushib qolgan usta shosha-pisha o‘sha atrofdagi qilichbozlik maktabiga keladi. U o‘lish kerak bo‘lsa, or-nomus bilan halok bo‘lishga qaror qilgandi. Bunday maktablarga tavsiya xati orqali kirish qat’iy qoida edi. Biroq ustaning astoydil yalinib-yolvorishini ko‘rib, ichkariga ruxsat berishadi. Qilichboz-samuraylar ustozi ustaning tarixini eshitib, unga hamdardlik bilan qaraydi. Or-nomus bilan halok bo‘lishi uchun bechora ustaga qilichbozlik sirlarini o‘rgatishga rozi bo‘ladi. Biroq avval bir choy damlab bering, deb iltimos qiladi. Usta butun diqqat-e’tiborini choy damlash marosimiga qaratib, faqat unga xos bo‘lgan mahorat, vazminlik va qadr-qimmatini saqlagan holda barcha ishni bajo aylaydi. Marosim oxirida qilichboz-ustoz hayajonlanib, shunday deydi: *“Seni or-nomus bilan halok bo‘lishga o‘rgatishning hech hojati yo‘q ekan! Aql-idroking shunday yuqoriki, sen har qanday samuray bilan bemalol yuzma-yuz kelishing mumkin. Raqibingni ko‘rganing zahotiyoq, qarshingda choy damlash marosimini tasavvur qil. Marosimda bajarganingdek, kiyimlaringni xotirjam yechib, ularni bir-bir taxlab qo‘y. So‘ng qilichni boshing uzra ko‘tarib, diqqatingni bir joyga jamla. O‘zingni nihoyatda vazmin va xotirjam tut. Ana shunda o‘limingni mardona kutib olasan”.*

Choy marosimi ustasi ertasiga jang belgilangan joyga yetib keladi. U o‘zini sovuqqon va munosib tutardi. Ustaning kiyimlarini xotirjam, navbati bilan yechib, ularni chiroyli tarzda taxlashini ko‘rib, samuray o‘ylanib qoladi. “Chamasi, qarshimda juda tajribali va mahorati yuksak samuray-jangchi turganga o‘xshaydi”, deb xayolidan o‘tkazadi. U ta’zim qilib, kechagi odobsizligi uchun uzr so‘rab, tezda jo‘nab qoladi.

Xulosa: Qo‘rquvga soladigan vaziyatlarda biri-biridan sarosimali holatlar tasavvurimizda kattalashib ketadi. Ana shunday paytda fantaziyalaringizni jilovlashga harakat qiling. Albatta, buni gapirish oson, ammo amalga oshirish qiyin. O‘zingizni qo‘lga olib, xotirjam tortishingiz uchun diqqatingizni o‘zingiz yaxshi biladigan biror oddiy narsaga qarating. Bu bir joyga jamlanib olishingizga yordam beradi. Diqqat-e’tiborni bir joyga to‘plash ko‘ngildagi turli ishtibohlarni haydashga yordam beradi. Ruhiy muvozanatga erishganingizdan keyin sizni xavotirga solayotgan muammoni hal qilish oson kechadi. Qalbingizda qo‘rquv va hadik paydo bo‘lishi bilan shu usulni qo‘llang. Qiyin vaziyatlarda tasavvurlarni jilovlay bilish nihoyatda muhim odatdir.

“Tarix saboqlari va hayot strategiyalari” Robert Grin.
Jaloliddin Safoyev tarjimasi

@Vatanparvargazetasi_bot
“Vatanparvar” birlashgan tahririyati bilan bog‘lanish uchun telegram bot

SHU SONNING ELEKTRON SHAKLI

VATANPARVAR

MUASSIS
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI
www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir vazifasini vaqtincha bajaruvchi:
podpolkovnik Faxriddin Nutfillayev

ISSN 2010-5541

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-91
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo‘lim: 55 511-25-90

Navbatchi: kapitan Bobur Elmurodov
Sahifalovchi: Begali Eshonqulov
Musahhih: Zebo Sariyeva

Buyurtma: V-5857
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 33 970 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “O‘zbekiston” NMIU mas’ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr ko‘rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

“O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sag‘bon ko‘chasi, 382-uy.

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi
www.mv–vatanparvar.uz
www.mudofaa.uz
mudofaavazirligi
mudofaavazirligi
www.youtube.com/c/UzArmiya